

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



“Texnologik mashinalar va jihozlar” kafedrası

**5320300 – “Texnologik mashinalar va jihozlar» bakalavr ta'lim yo'nalishi
talabasi Qayumov Sardor Sobirovichning**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Burg'ilash minoralari tal tizimi va ularning asosiy
elementlari hisobi.**

Bitiruvchi:

S.S.Qayumov

Rahbar:

M.M.Otamurodov

“Himoyaga ruxsat etildi”

Kafedra mudiri:

_____ dots X.Q.Eshkabilov

“___” _____ 2016 y.

“Himoya uchun DAK ga yuborildi”

Fakultet dekani:

_____ dots.A.R.Mallayev

“___” _____ 2016 y.

Qarshi - 2016 yil

Kirish

O'zbekistonning zamonaviy ishlab chiqarish sanoati yirik og'ir industriya tarmoqlaridan biri bo'lib, vatanimizning muhim energetika bazasidir. O'zbek mutaxassisleri neft bo'yicha 100 yildan ortiq, gaz bo'yicha yarim asrlik ilmiy va amaliy bilimga hamda tajribaga egadirlar. Bu tarmoqda sezilarli darajada ilmiy texnik potensial yaratilgan va uni rivojlantirishda anchagina yutuqlarga erishilgan.

1990-1995 yillarda bu tarmoq strukturasini mukammallashtirish bo'yicha texnik jixozlanish va qayta yangi asbob-uskunalar bilan qurollanish, konlarni ishga tushirish hajmini jadallashtirish va ularni oshirish (ko'paytirish) uchun ulkan ishlar qilindi. Bu davr ichida MDH da neft va gaz qazib chiqarishning kamayishi ro'y bergan bo'lsa, O'zbekistonda neft-gaz qazib chiqarish barqarorlashgan va so'ngra dinamik o'sishga erishildi.

Hozirgi vaqtda neft va gaz sanoati xodimlari oldiga yangi neft va gaz konlarini topish, ishlab turgan konlarimiz bag'ridan iloji boricha ko'proq neft va gaz chiqarib olishni ta'minlash, neft va gaz quduqlarini burg'ilash texnologiyasini ilg'or va zamonaviy usullarini qo'llagan holda yer bag'rida qolib ketayotgan ko'plab miqdordagi neft mahsulotlarini yuzaga chiqarish imkoniyatlarini bajarish masalalari eng dolzarb mavzu sifatida qo'yilgan.

Bu borada quduqni burg'ilash jarayoni, burg'ilash usulini, quduq konstruksiyasini, burg'ilar turini, burg'ilash rejimini tanlash, ular bilan mahsuldor qatlamlarni ochish, ularni sinash, ishga tushirish, qatlamning fizik-geologik xususiyatlarini o'rganish, ulardagi mavjud neft, gaz, suvlarning hossalarni o'rganish, neft, gaz, suvlarning uyumlari joylashgan tuzilmalarning tuzilishini aniqlash va hisoblash, kondan oqilona foydalanish uchun burg'ilanishi lozim bo'lgan quduqlar sonini belgilash va ularning qazilish hamda ishga tushirilish navbatini aniqlash, qatlamning energetik quvvatlarini chamalash, undagi mahsulotni haydab chiqarish imkonini beradigan usullarni tavsiya qilish va qo'llash, neft va gaz quduqlarini burg'ilash jarayonida yer osti boyliklarini va atrof-muhitni muxofaza qilish ishlarining hammasi neft va gaz sanoati xodimlarining vazifasidir.

Hozirgi kunda O'rta Osiyo davlatlari xalq xo'jaligida (energetika, sanoat korxonalari, irrigatsiya, og'ir sanoat va yirik shaharlar elektr va gaz ta'minoti) neft va gaz ta'minotining ahamiyati beqiyosdir. SHu tufayli hozirgi paytda mamlakatimizda neft va gaz qazib chiqarishga alohida e'tibor berilmoqda.

Yaqinda Koreya respublikasi bosh vaziri Xvan Gyo Anning mamlakatimizga rasmiy tashrifi bo'lib o'tdi. Tashrif dasturida Qoraqalpog'iztondagi Ustyurt gaz-kimy o'limyo mamuasining qurilishi tugallanishi hamda Toshkentda Koreya madaniyati va san'ati uyi barpo etilishining boshlanishi marosimlarida ishtirok etish ko'zda tutilgan.

Mazkur loyihalar davlatlarimiz rahbarlarining katta jonbozliklari hamda qo'llab-quvvatlashlari tufayli muvaffaqiyatli voqelikka aylandi va ular ikki mamlakat o'rtasidagi mustahkam do'stlik hamda o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarning ajoyib namunasi hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, diplomatiya munosabatlari o'rnatilgan 1992 yildan buyon o'tgan davr oralig'ida o'ily darajada 14 ta uchrashuv bo'lib o'tdi. Turli yo'nalishlarda yaqin strategik sheriklik o'rnatildi va mustahkamlanmoqda. Shu davr mobaynida o'zaro Tovar ayirboshlash hajmi 500 barobardan ziyod ko'paydi.

Bugungi kunda O'zbekiston Koreya Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yirik savdo sherigi hisoblanadi, mamlakatimiz esa O'zbekistonning sarmoyaviy sheriklari ro'yxatida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Ko'rib turganingizdek davlatlarimiz o'rtasidagi o'zaro hamkorlik izchil rivojlanib bormoqda va u katta istiqbollarga egadir.

Hozirgi paytda turli sohalardagi O'zbekiston-Koreya Respublikasi qo'shma loyihalari muvaffaqiyat bilan amalga oshirilmoqda. Surg'il konida barpo etilgan Ustyurt gaz kimyo majmuasi ulardan biri hisoblanadi.

Mazkur sanoat giganti qurilishining yakunlanishi marosimida qatnashish menga katta mamnuniyat bag'ishlaydi. Uni Janubiy Koreya – O'zbekiston iqtisodiy hamkorligining “yangi chaqirimlarni ko'rsatadigan ustuni” deb atash mumkin. U o'z ko'lami bilan, haqiqatan ham, megaloyihadir: yotqizilgan sarmoya hajmi qariyb 4 milliard AQSH dollarini tashkil etadi. Bu loyiha hamkorlikning yangi modeli bo'lgani tufayli ham alohida qimmatga ega. U xom ashyo resurslari eksportidan qo'shma ishlab chiqarishga o'tishni va yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlarni tashqi bozorlarga yetkazib berishni ko'zda tutadi.

Obyekt qurilishi yakunlanishiga bag'ishlangan marosimda Janubiy Koreya va O'zbekiston hukumatlari vakillarining ishtiroki ushbu loyihaga qaratilayotgan alohida e'tibordan dalolat beribgina qolmay, tomonlarning o'zaro manfaatli aloqalarini yanada kengaytirishga bo'lgan qat'iy xohish-irodasi hamda intilishini ham ko'rsatadi. Kelajakda ham bunday tashabbuslarni amalga oshirish, shuningdek, Qandim gazni qayta ishlash majmuasining barpo qilinishida ishtirok etish rejalashtirilmoqda.

2015 yilning noyabrida Toshkentda bo'lib o'tgan Xalqaro investitsiyaviy forum doirasida O'zbekistonlik hamda Janubiy Koreyalik sheriklar o'rtasida qariyb 1 milliard AQSH dollariga teng miqdordagi bitim va memorandumlar tuzildi.

Koreya Respublikasi O'zbekistonning eng yirik sarmoyadorlaridan biri sifatida o'zbek iqtisodiyotiga katta mablag' kiritdi. Janubiy Koreyaning “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy, “Jizzax” va “Angren” maxsus industrial zonalarida o'z faoliyatini yo'lga qo'ygan 6 ta kompaniyasi qariyb 60 million AQSH dollari miqdorida sarmoya yotqizdi. Ular avtomobillar uchun asosiy ehtiyot qismlar, pardoz-andoz, yoritish uskunalari hamda boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarishmoqda. Bundan tashqari, “Navoiy” aeroporti bazasida tashkil etilgan intermodal logistika markazini rivojlantirish maqsadida “Korean Air” kompaniyasi bilan yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

O'tgan davr mobaynida Prezident Islom Karimov rahnamoligida Markaziy Osiyoning eng muhim davlati bo'lib qolgan O'zbekiston yillik iqtisodiy o'sishning 8 foizlik darajasini va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo'yicha dasturlarning hayotga tatbiq etilishini ta'minlamoqda. Mamlakatning jahon maydonidagi maqomi jadal yuksalib borayapti. O'zbekiston joriy yilda bir yo'la ikki yirik tuzilmaga – Shanxay hamkorlik tashkiloti hamda Islom hamkorlik tashkilotiga raislik qilayotgani bu fikrni tasdiqlaydigan dalillardan biridir.

I-BOB. BURG‘ILASH MINORALARI.

1.1. Burg‘ilash minoralarining konstruksiyasi va ularning tavsifi.

Burg‘ilash minoralarining asosiy vazifasi quduqdan yuqorida burg‘ilash va mustahkamlovchi quvurlarni ko‘tarish, ko‘tarib tushirish operatsiyalari va burg‘ilashda, quduqdan ko‘tarilgan burg‘ilash quvurlarini joylashtirish va burg‘ilash brigadasini shamoldan, yomgirdan va qordan himoya qilishdir.

Minorani yuqori qismida krantok o‘rnatilgan bo‘lib, kranblokga Tal tizimi osilgan, unga burg‘ilash kolonnasi yoki mustahkamlovchi kolonnalar yuklangan bo‘lishi mumkin.

Minoraga tushirib ko‘tarish operatsiyalarini mexanizatsiyalash moslamalari o‘rnatilgan va burg‘ilovchini ikkinchi yordamchisi uchun balkon o‘rnatilgan.

Minorani yana vazifasi burg‘ilash quvurini shamini vertikal (tik) holatida joylashtirishdir.

Minoraga zinapoyalar va maydonchalar himoya to‘siqlari bilan osilgan.

SHunday qilib, minora unga o‘rnatilgan uskunalari bilan yukko‘targich qurilmasi bo‘ladi.

Burg‘ilashda asosan minoralarning ikki tipi qo‘llanadi:

1. Bashnyali;

2. Machtali (A-simon).

Bashnyali minora qurilmasiga og‘irlik to‘rt tayanchga beriladi.

Machtali minora qurilmasiga og‘irlik ikki tayanchga tushadi.

Uralmash zavodida chiqadigan minoralar quyidagicha belgilanadi:

Misol-VB-53-320; V-minora; B-Bashnyali; 53-minorani balandligi (m); 320-kryukga yukko‘taruvchanligi - tn;

VBA-58x380 - minora Bashnyali ASP (ko‘tarib tushirishni avtomatiziyalash). Balandligi 58 m, yukko‘taruvchanligi - tn;

Machtali (A-simon) - minoralar shifrda ikkita harf bor, Misol: VA-45x200. Bu erda V-minora; A-simon; 200-kryukga yukko‘taruvchanligi tn, VA-41x170.

Quyidagi rasmda Machtali (A-simon) VA-41x170 tipidagi minora keltirilgan.

Machtali (A-simon) VA-41x170 tipidagi minora - A - simon meTal li konstruksiya bo‘lib ikkita oyoqdan va ikkita podkoslardan tashkil topgan;

Yuqorida minorani oyoqlari o‘z aro kronblok ostidagi ramasi bilan bog‘lashgan bo‘lib, unga kranblok o‘rnatiladi.

Pastda minorani oyoqlari, minora asosining tayanchiga mustahkamlanadi. Burg‘ilash quvurlar shamini to‘satdan tushib ketishini himoya qilish uchun minoraga saqlagich belbog‘lari o‘rnatilgan.

Bashnyali minoralar kesilgan to‘rt qirrali, asosan to‘rt oyoqdan iborat bo‘lib ular o‘zaro maydoniy chamberaklar bilan bog‘langan.

Minorani asosiy qismlari (uzli) – oyoqlar, belbog‘lar, diagnalli tyagalar, tutashtiruvchi va tayanch uzellari, eshik (vorota), kranblok osti ramasi, kozlilar, balkonlar, zinapoyalar va maydonchalar himoya tutqichlari bilan.

Burg‘ilashda eng ko‘p qo‘llanadigan 41-metrli Bashnyali tipli minoralar. Bu kesilgan to‘rt qirrali piramida bo‘lib 10-panellardan tashkil topgan, har bir panellarni

balandligi 4-metrdan. Minorani pastki qismi asosining o'lchami 8 x 8m, yuqori qismi 2 x 2m; minora oyog'ining pastki qismida tayanch plitlari bor, shu plitlar bilan minora boltlar yordamida fundamentda (poydevorga) mustaxkamlanadi.

Minora oyog'ining yuqori toresiga maxsus stolchalar payvand qilinadi, kranblok osti to'sig'ini (balkasini) o'rnatish va mustaxkamlash uchun, unga kranblok o'rnatiladi. 41-metrli minoralarga bolkon (palata) yuqori ishchi (burilshik yordamchi) - uchun poldan (burg'ilash maydonidan) 22,5 m balandlikda o'rnatiladi, chunki burg'ilash paytida 24-25 metrli burg'ilash shamlari ishlatiladi.

quyidagi jadvalda burg'ilash minoralarining asosiy tavsifi berilgan:

Jadval-1

Ko'rsatkichlar	Bashnyali tipli minora			Machta tipli A-simon minora		
Ilgak nominal yuk ko'targichi, tN	150	200	300	75	80	125
Ilgak maksimal yuk ko'targisi, tN	200	250	350	100	140	160
Yuqori qism o'lchamlari (oyoq o'qlari oralig'i), m	2x2	2x2	2x2	-	-	-
Pastki qism o'lchamlari (oyoq o'qlari oralig'i), m	8x8	8x8	10x10	-	-	-
Tayanch oralig'i o'lchami, m	-	-	-	6,2	7,2	9,2
Minora balandligi, metr	41	40	53	40	40	43
Minoraning butun og'irligi, kg	24500	30500	50500	18200	18300	26400

1.2.Burg'ilash uskunalarining vazifalari va ishlatish sharoitlari.

Burg'ilash sohasida yuqori yutuqlarga etish uchun, burg'ilash uskunalarini va jihozlarini samarali ishlatish kerak.

Burg'ilash uskunasi burg'ilash quduqlarini qurish uchun kerak. Burg'ilash uskunolari alohida qurilmalardan, agregatlar va mexanizmlardan iborat. Burg'ilash jarayonida ko'p operatsiya ishlari yoki alohida operatsiyalarni burg'ilash brigadasi mexanizmlar yordamida bajariladi.

quduqlarning to'liq qurilish davrida quyidagi asosiy ishlar bajariladi:

1. Burg'ilash minorasini sozlash, burg'ilash uskunalarini sozlash, kuchaytiruvchi asbob-uskuna jihozlash sozlash, minora inshootlarini qurish.
2. Tayyorlash ishlarini chkunlash va quduqni burg'ilashga tayyorlash.
3. Burg'ilash jarayoni (protsessi).
4. qatlamlarni ochish va ajratish, mustahkamlovchi quvurlarni tushirish va sementlash.
5. quduqlarni sinash neft va gaz keluvchi oqimini qurish va o'zlashtirish.
6. Burg'ilash uskuna va asboblarni demontaj qilish va erna qayta tiklash (rekultivatsiya).

Neft quduqlarini burg'ilash paytida burg'ilash uskunasi bilan asosan quyidagi ishlar bajariladi: Burg'ilash quvurlarini burg'i bilan parchalash, parchalangan tog

jinsini quduqdan chiqarish, burg'ilash quvurini burg'isi bilan quduqdan ko'tarish va ishlangan burg'isini almashtirish.

Ma'lum chuqurlikgacha burg'ilashgandan keyin quduqlar devorini mustahkamlash uchun, mustahkamlovchi quvurlar, quvur tashqi bo'shlig'ini (quduqni devori va quvur) oralig'ini sementlash qatlamlarni ajratish, sinash, yana ko'p texnologik operatsiyalar va geofizik ishlari bajariladi.

Burg'ilash uskunalari vazifaviy (funksionalno'y) ish bajarilishidan ikki gruppaga bo'lamiz:

1. yer osti asbob uskunalari;
2. yer yuzi uskunalari.

Agar yer osti asbob uskunalari faqat burg'ilash uchun ishlatilsa, yer yuzi uskunalari ularni to'liq mukammal ishlashini ta'minlaydi.

Yer osti asbob uskunalari:

- Burg'ilash kolonnasi;
- tubli dvigatellar;
- burg'ilar;
- mustahkamlovchi kolonnalar.

Burg'ilash kolonnasining bajariladigan funksiyasi asosan quduqlarni burg'ilash yoki quduq ustunini kengaytirish, burg'ilash kolonnasi tashkil topgan. Burg'ilash quvurlari, tub dvigatellaridan va tog' jinslarini emirilishini, parchalanishi uchun moslamalar, (burg'ilar, kengaytirgichlar, qoliblatorlar va sh.k.).

Tubli dvigatellar - bu turboburlar, quduq tubi vintli dvigatellar va elektroburlar. Tubli dvigatellarning avzalligi shundan iboratki, burg'ilash jarayonida burg'ilash kolonnasi aylanmasligini ta'minlaydi. SHu sababli burg'ilash kolonnasiga ta'sir etuvchi o'garuvchan kuchlar kamayadi va burg'ilash kolonnasining ish qobiliyati oshadi.

Mustahkamlovchi quvurlar - davlat standarti № 632-64 bo'yicha, diametrlari 114-508 mm, uzunligi 9,5 m dan to 13 metr, devor qalinligi (6 mm dan to 14 mm) gacha ishlab chiqariladi. Barcha po'lat quvurlar quyidagi mustahkamlovchi guruhlardan tashkil topgan: S, D, K, E, L, M, R; (320 dan to 950 MPa). Mustahkamlovchi kolonnalarni ishlatish jarayonida ta'sir etuvchi kuchlar, tashqi bosim, ichki bosim, va kolonnani o'z og'irligi bilan o'q bo'ylab cho'zilishi.

Burg'ilash uskunalari yuk ko'taruvchanligini aniqlashda mustahkamlovchi kolonnalar va burg'ilash kolonnalarining eng katta og'irligi hisobida olinadi.

Yer yuzi uskunasi:

- Minora;
- Rotor;
- Vertlyug;
- Burg'ilash nasoslari;
- Ko'targich kompleksi;
- Tal tizimi;
- Lebedka;
- Ko'taruvchi uzatma;
- Kompessorlar va pnevmotizimlar;
- Sirkulyasion-tizimi uskunalari;
- quduq usti uskunalari;

- O'Ichagiya va ishni tartiblash moslamalari.

Yer yuzi uskunalari - po'latli asoslar, poydevorlarga joylashtirilgan bo'lib, bu nasoslarni o'lchamlari burg'ilash uskunalari montaj qilish usullari va burg'ilash nohiyasini geografik va iqlim sharoitlariga bog'liq.

Uskunalar yig'ish, qurish (montaj) usullari asosan ikkita: blokli-agregatli va katta blokli.

Blok - bu meTal li asos bo'lib, unga birta yoki ikkita knematik bog'lik bo'lgan agregatlar joylashtirilgan.

Katta blok - bu inshoot bo'lib massif meTal li asosdan tashkil topgan, unga alohida guruh agregatlar umumiy jihozlari (ukritiya), kommunikatsiyasi bilan birgalikda o'rnatilgan.

Katta blokli-montaj usulida burg'ilash uskunasini ikkita-uchta umumiy massasi 60-130 t. bloklarga bo'linadi. Katta bloklar uchta-to'rtta og'ir yuk tashuvchi telejkalar bilan gusenali traktorlar yordamida tashiladi.

Yer yuzi burg'ilash uskunasining asosiy vazifasi: tushirish, ko'tarish operatsiyalarini (T.K.O.) bajarish, burg'ilash kolonnasini burg'i bilan aylantirish va kuduqni burg'ilash eritmasi bilan yuvishni ta'minlash.

Yer yuzi uskunalari ikkita guruhga bo'lish mumkin: asosiy va yordamchi;

Asosiy uskunalar guruhiga quyidagilar kiradi: Minora, burg'ilash nasoslari, rotorlar, vertlyuglar va ko'targich kompleksi uskunalari.

Yordamchi uskunalar asosiy uskunalarni to'ldiradi va uni ishlashini ta'minlaydi. Bu guruh tashkil topgan kompressorlardan, sirkulyasion tizimi uskunalari, quduq usti va tushirib ko'tarish operatsiyasini (T.K.O.) - uskunalari, o'Ichagich va ishni tartiblash moslamalaridan.

1.3. Tuzilma-izlov, chuqur qidiruv va ishlatish quduqlarining burg'ilashda qo'llanadigan uskunalari.

Zamonaviy burg'ilash uskunalari uch guruhga ajratish mumkin:

- Tuzilma-izlov burg'ilash uskunalari;
- Neft va gaz uchun chuqur qidiruv va ishlatish quduqlarini burg'ilash uskunalari;
- Tish quduqlarini burg'ilash uskunalari;
- Dengizga burg'ilash uskunalari;

Geologik-izlov ishlarini olib borish uchun ko'pincha chuqurligi 50-60 m quduqlar burg'ilanadi, rangli va kam uchraydigan meTal larni izlash uchun, qurilish materiallari, seysmik qidiruv, injenerli-geologik va gidrogeologik izlanishlar va sh.k.

Bu quduqlar ko'pincha yumshoq tog' jinslariga burg'ilanadi. Bular asosan qumli-gilli jinslar, xarsangli gil, qumtoshlar;

quduq tubini emirilish, parchalanish usullari bo'yicha tuzilma-izlov burg'ilash uskunalari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Zarbli-srkonli burg'ilash;
2. SHnekali burg'ilash;
3. Murakkab zarbli-aylanma burg'ilash;
4. Kolonkali aylanma burg'ilash.

Ko'p uskunarlar bir nechta burg'ilash usullarini bajaradi. Masalan: UGB-50M uskuna vazifasi quduqlarni shnekli, zarbli va kolonkali usullari bilan burg'ilash.

Burg'ilangan tog' jinsini quduq tubidan chiqarish asosiy usullari - enelonkali, shnekli va burg'ilash eritmasi yoki havo bilan damlash.

quyidagi jadvalda tuzilma-izlov burg'ilash uskunalarining tavsifi berilgan:

Jadval-2

Ko'rsatkichlar	Burg'ilash uskunalari				
	UTB-50M	URB-2A2	3IF65O M	URB-3A2	2AB-15N
Burg'ilash chuquriligi, m	50	200	650	800	1600
quduq diametri, mm	198	190	200	243	295
Nominal yuk ko'tarish, kN	26	25	35	63	200
Bosh uzatma quvvati kVt	40	44	60	77	154
Aylanish chastotasini chegaralangan qimmati aylanmag' minut	70-200	140-325	81-200	79-300	65-245
Tezliklarni soni	6	3	8	4	4
Ko'rish-naqliyotlash joyi	SHassi GAZ 66-02	SHassi ZIL- 131	-	SHassi MAZ-500A i MAZ- 520703	SHassi MAZ500A i MAZ5207
Uskunalar massasi, Tn	6,2	10	2,8	14,4	14,8

Tuzilma izlov burg'ilash uskunalari, harakatchan ixcham, chaqqonlik bilan qurilish va demontaj qilinishi va naqliyotlanish uchun uskunalarni traktor yoki avtomobillar shossesiga o'rnatiladi. Burg'ilash mexanizmlarini ishlatish uchun traktor yoki avtomobillar dvigatellaridan foydalanadi.

Rasmga 2BA-15N burg'ilash agregatini ishlash holatidagi umumiy ko'rinishi ko'rsatilgan.

Bu agregatni asosiy vazifasi neft va gaz uchun tuzilma-izlov quduqlarini burg'ilash. Bu agregat o'ziyurar bo'lib, ikkita asosiy bloklardan tashkil topgan: Burg'ilash bloki va nasosli kuchaytiruvchi blok;

Burg'ilash bloki umumiy chorchuaga (ramaga) o'rnatilgan bo'lib avtomobil MAZ-500 A shassisiga mustahkamlangan. Bu blokga kiradi, quvvat olish qutisi (korobku otbora moshnosti), uzatma qutisi (korobku peredach), rotor teshigi diametri 410 mm, lebedka, machta, generator quvvati 20 kVt, kompressor, elektrolebedka ko'taruvchi kuchi 10 kN, uzatuvchi mexanizm, gidroskrepitel va quvurlarni burab biriktirish mexanizmlari. Nasosli-kuchaytiruvchi bloki MAZ-5207V avtopritsepiga o'rnatilgan.

Nasosli-kuchaytiruvchi blokiga YAMZ-236 dvigateli uzatma qutisi bilan birgalikda, reduktor, 9MGR burqilash nasosi, o'rnatilgan. Neft va gaz uchun chuqur-qidiruv va ishlatish quduqlarini burg'ilash uchun seriyali ishlab chiqaradigan uskunarlar bilan 2-10 ming metr chuqurlikdagi quduqlarni burg'ilash mumkin. Komplekt burg'ilash uskunalari seriyali ishlab chiqarish boshida ularni tasniflash (Klassifikatsiyalar) zarurligi chiqa boshladi: Davlat GOST 16293-82 bilan burg'ilash uskunalarini klassifikatsiyasi mustahkamlangan.

Jadvalda burg‘ilash uskunalarini parametrlarini o‘lchamlari davlat GOST 16293-82 asosida keltirilgan:

Jadval-3

Ko‘rsatkichlar	Burg‘ilash uskunalarini klasslari				
	7	8	9	10	11
Ilgakning maksimal yuk ko‘tarishi, kN.....	3200	4000	5000	6300	8000
Burg‘ilash chuqurligini shartli diapazoni, m	3200-5000	4000-6500	5000-8000	6500-10000	8000-12500
Tal tizimining eng katta ostnastkasi.....	6x7	6x7	6x7	7x8	-
Tal arqoni diametri, m	32	35	35; 38	38; 42	42; 44
Ko‘targich agregatining uzatmasini quvvati, kVt	900-1100	1100-1475	1475-2200	2200-2950	2500-2950
Rotor stoli teshigini diametri, mm	700	950	950	1260	1260
Rotor uzatmasini quvvati, kVt	370	440	500	540	540
Rotor stoliga ta’sir etuvchi maksimal statik kuchi, kN	4000	4000	5000	6300	8000
Rotor stoli beradigan momenti, kN.m	80	80	80	120	180
Asosiy burgilash nasoslarini soni	2	2	2	2	3
Burgilash nasosini uzatmasini kuvvati, kVt	600	750	950, 1180	1180	1180-1840
Nasos manifoldini maksimal bosimi, MPa	25; 32	25;32; 35	32; 40	40	40; 105
SHamni (svechi) nominal uzunligi, m	25	27	36	36	27; 36
Asoslarni balandligi (ulcham burgilash maydonidan), m	6	6,7; 8	6,9; 8	7,5; 8	8,5

Standart bo'yicha ikkita asosiy parametrlar qabul qilingan:

1. Burg'ilash va quduqlarning mustahkamlash jarayonida ilgakcha (kryukga) ta'sir etuvchi kuchlar.

2. Burg'ilash kolonnalarining 1 metr massasi 30 kg hisobida quduqlarni burg'ilash shartli chuqurligi qabul qilingan.

Agar birinchi parametr lebedkani Tal -tizimini, vishkani (minorani) va uning asoslarini yuk ko'taruvchanligini ko'rsatsa, ikkinchi parametr shartli qabul qilingan.

quyidagi jadvalga Uralmashzavod burg'ilash uskunalarining tasnifi keltirilgan.

Jadval-4

Uskunalar	Uralmash zavodi					
	BU-3000	BU-4000	BU-5000	BU-6500	BU-8000	BU-10000
Seriyali ishlab chikarish	125BD 125BE	3D(5x6) 4E(5x6)	3D(6x7) 4E(6x7)	200DG-IV 200E-IV	300DE 300E	BU-15000
1974 yil va kelgusi yillar ishlab chikarish	125DGU	-	160DGU	-	-	-
	125BE	-	160EU	-	-	-
uskunalarining shifri 1979 yildan	BU-3600 DGU	BU-4000 DU	BU-5000 DU	BU-6500 DG	BU-800 DE	BU-15000D
	BU-3000 EU	BU-4000 EU	BU-5000 EU	BU-6500 E	BU-8000E	
	BU-3000 EUK	BU-4000 EUK				

Jadvaldan kurinib turibdiki shifriga U harfi bo'lgan burg'ilash uskunolari universalli ixcham montaj demontaj qilishga ko'p vaqt sarflanmaydi. Misol: BU-3000 EUK - (uzatmasi elektrli, universalli, montaj demontaj qilinishi qulay maxobli (Kustevoy) burg'ilashda mo'ljallangan.

1.4.Burg'ilash uskunalarining ishlash tartibi (rejimi) va ta'sir etuvchi kuchlar.

Burg'ilash jarayonida burg'ilash uskunolari asosan ikkita rejimga ishlatiladi, bu burg'ilash kolonnalarini ishlatishga bog'liq:

1. Burg'ini aylanish rejimi (burg'ilash);

2. Burg'ilash kolonnalari tushirish yoki ko'tarish rejimi (t.k.o.).

Bu ikkita rejim statsionarli emas. Burg'ilash uskunalarini qismlariga, deTal lariga ta'sir etuvchi kuchlarning xususiyati (xarakteri) va o'lchamlarini aniq aytish qiyin. Lekin hozirgi vaqtda ta'sir etuvchi kuchlarning o'zgarishini aniqlash omillari mavjud.

Burg'ilash jarayonida ta'sir etuvchi kuchlar kelib chiqadi, burg'iga beradigan aylantiruvchi moment, burg'ilash kolonnalarini ko'tarib saqlash va aylanish

(sirkulyasion) - tizimiga burg'ilash eritmasini haydash paytida. Tog' jinslari bir xil bo'lmaganligi va fizik-mexanik xususiyatlariga qarab, quduq tubida burg'i bilan ularni emirilishi, parchalanishi va chuqurlanishi bir me'orda bo'lmaydi.

SHu sababdan ilgakcha (kryuk), Tal tizimiga ta'sir etuvchi cho'ziltiruvchi kuch (rastyagivayuhaya nagruzka) o'zgaradi.

Burg'ilash uskunasi ta'sir etuvchi eng katta kuch kolonnalarni ko'tarish paytida bo'ladi. SHu vaqtda burg'ilash nasoslaridan tashqari uskunaning hamma asosiy mexanizmlari ishga qo'shiladi.

Burg'ilash kolonnasini ko'tarish jarayoni quyidagi davriy qaytuvchi operatsiyalardan tashkil topgan:

- Kolonnani bir sham (svecha) balandligidan yuqoriroq ko'tarish (elektorni balandligicha);

- Elevator yoki rotorli pnevmoklinlar yordamida kolonnani rotor stoliga qo'yish;

- AKB (avtomatli burg'ilash kaliti) yoki UMK s universalli mexanik kaliti) - bilan bu kolonna qulflarini yoki mufTal arini ochish;

- ochilgan shamni (svecha) shamsupaga qo'yish;

- yuklanmagan elevatori Tal tizimi bilan rotor stologacha tushirish;

- elevatorlarni rotor stoli ustida almashtirish yoki rotor stoli ustida elevator bilan burg'ilash kolonnasini ushlab ko'tarish;

- burg'ilash kolonnasini kelgusi sham balandligicha ko'tarish.

Bu erdan kelib chiqadiki, ko'tarish kompleksini mexanizmlarining deTal lariga ta'sir etuvchi kuchlarni o'lchamlari va vaqti o'zgaruvchan xususiyatga (xarakterga) egadir.

1.5.Burg'ilash minoralarining konstruksiyasi.

Burg'ilash minoralari metall konstruksiyadan iborat bo'lib, quduq ustiga o'rnatiladi. Vazifasi – osma mexanizmni joylashtirishda, ko'tarib-tushirish operatsiyasida mexanizatsiyalash moslamasini va shamlarni joylashtirishdan iborat. Burg'ilash minoralari texnik tuzilishi jixatidan qulay bulmog'i lozim. Bunda asosiy ko'rsatkichlar bo'lib, montajda qulayligi, transportga yuklanishi, shu bilan birgalikda samaradorligi va quduqni burg'ilash vaqtda xavfsizlik ta'minlanishi bilan ajralib turishi kerak. Burg'ilash minoralarining ishdan chiqishi og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Burg'ilash minoralarini mustahkamligini oshirish va texnik xavfsizliklarni ta'minlash uchun aloxida GOST qabul qilingan. GOST 12.2.041-76 ga asosan minoraning asosi yoki fundamenti ishlatish jarayonida xavfsiz va ishonchli bo'lishi kerak.


Minoraning konstruksiyasida kronblok, yuqorigi ishchi uchun ish joyi va o'tuvchi maydonchalar bo'lishi lozim. Bu maydonchalar yuqoriga, ya'ni burg'ilash maydonchasi polidan kronblokkacha zinalar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Yuqorigi maydonchada burg'ilash shamlarini ko'tarib tushirish operatsiyasini bajarishda ishchiga qulay bo'lishi uchun harakatlanuvchi kabina bo'lishi kerak.

Kronblokn almashtirish uchun minoraning yuqorigi asosida maxsus moslama bo'lib, bu moslama kronblokning og'irligidan 1,5 marta katta bo'lgan og'irlikni ko'tarish uchun mo'ljallangan. Burg'ilash minoralarining geometrik formasi va

ularning aloxida elementlari ayerodinamik qarshiliklarga kam beriluvchan bo'lishi kerak.

A-simon minoralar ingichka, mustahkam panjaralardan tuzilgan. A-simon minoralar ikki oyog'i payvandlangan to'rburchakli fyermaga o'rnatilgan bo'ladi. A-simon minora tuzilishi jixatidan juda mustahkam bo'lib, aylanuvchi kuch momentiga qarshiligi katta. Bu kuch harakatlanadigan va harakatlanmaydigan osma arqonlar hisobiga hosil bo'ladi. Bu minorada boltli birikmalar juda ko'p bo'lib, minorani yig'ishda va buzishda ko'p mehnat talab qiladi. Qulaylik jixatidan esa minoraning ichki ko'rinishi chiqish ko'prigidan ko'rinib tursa, ikkinchi tomondan esa montajda qulayligi bilan ajralib turadi.


A-simon minora asosiy og'irlikni ko'tarib turuvchi ikkita oyoq va tayanch (podkos) – 5 dan iborat. Tayanch 5 minorani ish vaqtida ushlab turish vazifasini bajaradi. Minoraning balandligiga qarab har bitta oyoq 3 ta yoki 5 ta payvandlangan seksiya 2 dan iborat. Bu seksiyalar flanetsli birikma bilan bir-biriga biriktiriladi. Kronblokni ta'mirlash va unga xizmat ko'rsatish uchun minoraning yuqorisida maydoncha 1 mavjud. Minoraning oyoqlari tayanch bilan sharnir 4 yordamida biriktiriladi. Shamlarni joylashtirish uchun balkon 3 minoraning oyoqlariga kronshteynlar yordamida mustahkamlangan. Minoraning polidan balkongacha chiqish zinalari 6 o'rnatilgan.



A-simon minora.

To'rt oyoqli minora – piramida shaklida bo'lib, asosiy og'irlikni qabul qiluvchi 4 ta oyoq (6) dan iborat.

Ular bir-biri bilan belbog' 8 va diogonal 7 bilan maxkam bog'langan. Tuzilishi bo'yicha oyoqlar va belbog'lar quvurlardan, tayanch esa aylana po'latdan tayyorlangan. Minoraning yuqori qismida moslama 1 va kronblok maydonchasi 2 mavjud. Balkonlar 4 va 5 burg'ilash shamlarini qo'l kuchi yordamida joylashtirishda xizmat qiladi. Balkon 4 shamlarning uzunligi 36 metr bo'lganda, balkon 5 dan shamlarning uzunligi 27 metr bo'lganda foydalaniladi. Minoraning ikki qarama-qarshi tomonidan kerak bo'ladigan asbob-uskunalarni joylashtirish uchun darvoza 9 mavjud.



To'rt oyoqli minora.

1.6.Burg'ilash minoralari uchun kattaliklarni tanlash va ularning texnik tavsifi.

Minoralar quduqni qurish uchun loyihadagi eng katta chuqurlikka qarab tanlab olinadi. Bu kattalikdagi og'irlik ilgakka beriladigan og'irlik bilan mos tushishi kerak. Minoraning balandligi esa GOST 122041-79 ga asosan tanlab olinadi, bu holda osma sistemaning ko'tarilishi ish xavfsizligini ta'minlashi shart. Minoraning balandligi konstruktiv balandlikka va foydali balandlikka bo'linadi. Foydali balandlikka – burg'ilash minorasining polidan – kronblok asosining ostki qismigacha bo'lgan balandlik kiradi. Tushirib-ko'tarish operatsiyasini bajarish vaqtida xavfsizlikni saqlash uchun minoraning foydali balandligi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$H = h_1 + h_2 + h_3 + h_4$$

$$h_1 = 1,2 \div 1,5 \text{ m}$$

Bu yerda: h_1 -osilib turgan shamning ostki qismidan minora poligacha bo'lgan masofa.

Kronblokning ogirligi:

$$G_{\kappa.б.} = 0,015 \cdot P_{\kappa y u.}$$

$$G_{\text{T.c.}} = 0,04 \cdot P_{\kappa y u.}$$

$$G_{\text{y.m.}} = 0,03 \cdot P_{\kappa y u.}$$

Bu yerda: $G_{\text{t.s.}}$ – tal mexanizmidagi siljuvchi mexanizmlarning og'irligi.

$R_{\text{qo'sh.}}$ – ilgakka ruxsat etilgan og'irlik.

$$S_n = S_n = (P_{\text{kyu}} + G_{\text{T.}}) \cdot i_{\text{T.c.}}$$

Bu yerda: $i_{\text{T.s.}}$ – ostnastkalar soni.

Berilgan chuqurlikda burg‘ilash ishlarini olib borilayotganda, shamlar majmuasi uchun og‘irlik deb – eng og‘ir sharoitdagi burg‘ilash tizmasining ogirligini hisobga olinishi zarur.

$$G_{\text{ö.T.}} = L \cdot q_{\text{ö.T.}}$$

Bu yerda: L – quduqning chuqurligi.

$q_{\text{ö.T.}}$ – 1 metr burg‘ilash quvurining og‘irligi.

Diametri 114 mm bo‘lgan burg‘ilash quvurining 1 metr uzunlikdagi og‘irligi – 320 N. ni tashkil etadi.

$$q = qU^2 / 2 = U^2 / 1,6$$

Shamolning kuchlanishidan hosil bulgan dinamik bosimni shamol yoki tezlik tazyiqi deb atash qabul qilingan. Bu tazyiqlar havoning zichligiga bog‘liq bo‘lib, yuqoridagi formula bilan shamol tazyiqi aniqlanadi.

Bu yerda: q - shamol tazyiqi (Pa)

U - shamol tezligi (m/sek.)

Havoning zichligi – 1,225 kg/m³

Ishlayotgan holatda – 700 Pa.

Tashish vaqtida – 150 Pa.

Burg‘ilash minoralari panelli bo‘lgan holatda shamol tazyiqi 1 metr uzunlikdagi panellar soni – i ta bo‘lgan holda quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Q = q_i n_{\text{e}} C_i \beta B_i$$

Bu yerda: q_i – normativda olingan tezlik tazyiqi.

n_{v} – shamol natijasida hosil bo‘lgan og‘irlik koeffitsienti.

S_i – burg‘ilash minorasida – i ta paneli bo‘lganda
ayerodinamik koeffitsient.

β – dinamik koeffitsient.

V_i – burg‘ilash minorasidagi – i ta panellar soni.


1.7.Burg‘ilash tizmalarini tushiradigan va ko‘taradigan burg‘ilash minoralari va qurilmalari.

Burg‘ilash jarayoni burg‘ilash tizmalarini tushirish va ko‘tarish hamda ularni og‘irligini ko‘tarib turish ishlarini bajarish bilan kuzatiladi. Burg‘ilash qurilmalari ko‘tarishi kerak bo‘lgan jihozlarning og‘irligi, bir necha yuzlab kilonyutonga to‘g‘ri kelishi mumkin. Metall arqonga beriladigan yuklamani

kamaytirish va dvigatel quvvatini kamaytirish uchun kamaytiruvchi qurilmalar qo'llanilib, u minora, burg'ilash chig'irig'i va tal tizimlaridan tashkil topgan. Tal tizimi o'z navbatida qo'zg'almaydigan qismdan – kronblokdan, qo'zg'aluvchi qismlar - tal bloki (qo'zg'aluvchi blok poli, sirg'algich), tal arqoni, ilgak va shtroplardan tashkil topgan.

Ko'tarish qurilmalari har qanday usulda quduqni burg'ilashda ajralmaydigan qismi bo'lib hisoblanadi.

Burg'ilash minorasi quduqqa burg'ilash tizmalarini va burg'ilash quvurlarini tushirish va ko'tarish, burg'ilash davrida burg'ilash tizmalari og'irligini ko'tarib turish, unga tal tizimini joylashtirish, burg'ilash quvurlari va jihozlarni qismlarini burg'ilash jarayonida joylashtirish uchun mo'ljallangan.



Burg'ilash qurilmasining tushirish-ko'tarish jihozlari.

- 1-kronblok;
- 2-minora;
- 3-tal arqoni;
- 4-tal bloki;
- 5-ilgak;
- 6-burg'ilash chig'irig'i;
- 7-tal arqonining qo'zg'almas uchi.

Burg'ilash minorasi yuk ko'tarishi, balandligi va konstruksiyasi bo'yicha ajratiladi.


«Uralmash» zavodida quyidagi turdagi burg'ilash qurilmalari ishlab chiqariladi:

A – shakldagi VM-turidagi;

P – shakldagi VMP-turidagi;

A – shakldagi minora 3200/200 va 5000/320 tasnifli burg'ilash minoralarida qo'llaniladi.

P – shakldagi minora 5000/320 tasnifli burg'ilash qurilmalarida qo'llaniladi.



Machtali
turdagi burg‘ilash
minorasi.

*a – A shaklidagi minora;
b – P shaklidagi minora.*


To‘rt tayanchli machtali minoralar 6500/400 va 8000/500 burg‘ilash qurilmalarida qo‘llaniladi.

Minorani ko‘tarish va tushirish, burg‘ilash chig‘irig‘i yordamida amalga oshiriladi. Minoraning bitta oyog‘ida kronblok osti maydonigacha tonnel ko‘rinishidagi narvon mavjud, ikkinchi oyog‘i ichida – o‘tish maydoniga ega bo‘lgan qadamli ko‘rinishidagi narvon mavjud.


Volgograd burg‘ilash texnikalari zavodida ishlab chiqarilgan burg‘ilash minoralarining parametrlari jadval va rasmda tasvirlangan.

Har qanday burg‘ilash minoralarini konstruksiyalarida asos, balkon va narvonlarida texnika xavfsizligi choralari etiborga olinishi zarurdir.

Burg‘ilash minoralarida qisman yoki to‘liq buzilishi natijasida har xil turdagi jiddiy xavflar vujudga kelishi mumkin.



To'rt tayanchli machtali minora.



Volgograd burg'ilash texnikalari zavodida ishlab chiqarilgan burg'ilash minoralari.

a – B4.01.00.000; *b* – Sb.01/2500EU; *v* – B1, B11, B12


Burg'ilash qurilmalarini va minoralarini o'rnatish bilan bir vaqtda inshoot usti qurilishi quyidagicha olib boriladi.

Reduktor (agregat) saroyi – dvigatel va chig'irichni uzatma mexanizmlarini usti qismi yopish uchun mo'ljallangan. Uni minoraga orqa panel yo'nalishiga qarshi tomonidan ko'prik tartibida o'rnatiladi. Reduktor saroyining o'lchamlari qurilma turiga qarab aniqlanadi.

Nasos saroyiga burg'ilash nasoslari va kuch jihozlari joylashtiriladi. Nasos saroyi minora chirog'i yon tarafidagi reduktor saroyiga yondosh qilib quriladi. Reduktor va nasos saroylarining devorlari va tomi aniq sharoitlarga bog'liq holda taxta, gefr g'ovakli temir, qamishli shit, rezina to'qimali yoki polietilen plyonkalar bilan qoplanadi. Ba'zi bir burg'ilash qurilmalari reduktor va nasos saroylarini birgalikda qurilishini talab etadi.


Qabul ko'prigi burg'ilash, himoyalash va boshqa quvurlarni, jihozlarni, asboblarni, materiallarni va ehtiyot qismlarni ko'chirish uchun mo'ljallangan. Qabul ko'prigi yotiq va qiya holda bo'ladi. Qabul ko'prigi qurilmasini balandligi burg'ilash minorasi ramasi qurilmasini balandligiga muvofiq rostlanadi (belgilanadi). Qabul ko'prigining kengligi 1,5÷2 m, uzunligi 18 metrgacha.

Burg'ilashdagi bir qator yordamchi inshootlar: elektr uzatmali transport maydonchasi, ichki yonuv dvigateli (IYOD) maydonchasi, qaysiki unda yoqilg'i moylash materiallari va boshqalar joylashtiriladi.




BU-80 BrD burg'ilash qurilmasi.

a-yig'ma ko'rinishi; b-reja. 1-kronblok; 2-tal blok; 3-ilgak; 4-vyertyug; 5-minora; 6-tal arqon; 7-pnevmoboshqargich; 8-yopilma qurilmasi; 9-burg'ilash shamini pnevmo bo'shatgich; 10-tal arqonini mustahkamlaydigan va katta bo'shatadigan moslama.



Uralmash 125 BD burg'ilash qurilmasi umumiy ko'rinishi.

1-UZ-125 kronblok; 2-minora; 3-ASP-mexanizmlar jamlamasi; 4-U4-125 tal bloki; 5-vyertikal osilmasi; 6-U6-SHV14-160M vyertyug; 7-yopilma karkasi; 8-aylanma kran; 9-asos; 10-qabul ko'prigi takmasi bilan; 11-tal arqon qo'zg'almas mexanizmi shaxobchasi; 12-o'zgaruvchan uzatmali qutining kuch agregati; 13-ikki shkvli kuch agregati.



VB-53-300 minora shaklidagi qurilma.

1.8. Burg'ilash chig'irig'i.

Burg'ilash chig'irig'i burg'ilash tizmalarini tushirish va ko'tarish, himoya tizmasini tushirish, qo'zg'almaydigan burg'ilash tizmasini og'irligini ko'tarib turish yoki burg'ilash jarayonida sekin asta uzatish uchun qo'llaniladi. Burg'ilash chig'irig'i ba'zi bir holatlarda dvigatel quvvatini rotorga uzatadi, quvurlarni bo'rab mahkamlashda va bo'rab ajratishda, yuklarni ko'tarib berishda va boshqa yordamchi ishlarda qo'llaniladi. CHig'iriq burg'ilash qurilmasining asosiy agregatlaridan biri hisoblanadi.

Chig'iriq katta tezlikdagi ko'tarishdan kichik tezlikdagi ko'tarishga tezda qo'shilishi yoki teskariga ham tezda qo'shilishi, operatsiya vaqtida minimal vaqt sarflab rejali asosda qo'shilishini ta'minlashi kerak. Tizmalarni ko'tarishda qisilib va tortilib qolgan hollarida tortish kuchi tezda ko'tarilishi kerak. Har xil massadagi tizmalarni ko'tarishda tezliklarni qayta qo'shilishi davriy ravishda amalga oshiriladi.

Burg'ilash chig'irig'i vallarni soniga ko'ra bir, ikki va uch valli bo'ladi. Chig'irig' valli oraliq idagi kinematik bog'lanish zanjir uzatmali vositalarida amalga oshiriladi. Ko'taruvchi val burg'ilash chig'irig'ining asosiy vali hisoblanadi. Valda, zanjirli uzatma yulduzchalardan tashqari, tal arqonlarini va tormoz tasmalarini o'rash uchun baraban montaj qilinadi, mufta o'rnatiladi, gidravlik yoki elektrik tormozni biriktiruv vali montaj qilinadi.

Burg'ilash chig'irig'ining transmissiyasi va oraliq (g'altakli) valining ko'taruvchi vali va chig'irig' uzatmalari oraliq idagi kinematik bog'lanish amalga oshiriladi.

Pnevmatik bo'rab echish moslamalari burg'ilash quvurlarining qulfli birikmalarini echib bo'shatishga mo'ljallangan. Pnevmatik bo'shitgich silindrdan tashkil topgan bo'lib, qaysiki unda porshen shtok bilan harakatlanadi. Silindrning ikkala uchi tomoni qopqoq bilan yopilgan bo'lib, bir tomoniga shtok zichlamasi o'rnatilgan. Shtokning qarama-qarshi tomoniga porshendan metall tross mahkamlangan, qaysiki boshqa uchiga mashina kaliti kiydiriladi. Siqilgan havo ta'sirida porshen siljiydi va tross orqali mashina kalitini aylantiradi. Havoning siqilgan 0,6 MPa bosimida pnevmatik silindrdagi maksimal kuchning o'sishi 50÷70 kNga teng. Pnevmatik silindrdagi porshen yo'lini uzunligi 740÷800 mm.

Burg'ilash qurilmalaridagi kronbloklar konstruksiyasiga ko'ra arqon roliki sonlari ularni joylashuv soni va o'rnatilishiga qarab bir biridan farq qiladi.

Burg'ilash qurilmalari BU50 va BU8 beshta arqon roliki va kronblok jihozlangan bo'lib u beshta o'qqa o'rnatilgan.

Burg'ilash qurilmasi BU125 da minora kronblokbilan ta'minlangan bo'lib, 2 seksiyasi bitta o'qqa joylashtirilgan, har biri uchtdan arqon roliklaridan tuzilgan.

Burg'ilash qurilmasi BU125 A shaklidagi minora va ASP mexanizmi, 3 seksiyali kronblok, bitta o'qqa 3 tasi boshqa o'qqa, 2 tasi 3 o'qqa, bitta arqon roliki orqasi payvandlangan bo'ladi.

Jadval-5

№	Ko'rsatgichlar	Kronbloklar turi				
		BU-50Br	BU-75 Br	93-130-2	UZ-2002	KBN-7-200
1.	Yuk ko'tarish qobiliyati	50	75	130	200	300
2.	Ilgakka beriladigan maksimal yuk	70	100	160	250	
3.	Arqonni maksimal tortish kuchi	10	15	22	22	22
4.	SHkif arig'i bo'yicha	800	800	900	1000	1000
5.	Kronblok og'irligi, kg	923	1070	2400	3915	4850

1.9.Burg'ilash minoralarining asosi, ularning tuzilishi haqida umumiy ma'lumot.

Burg'ilash uskunasi asosini montaj qilishda va tashishda bu uskuna uchun qulay variantni tanlab olishimiz lozim. Burg'ilash uskunasi asosini bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga olib borish, qurilish ishlarini va ishga tushirish vaqtini

jadallashtirish uchun univversal asosli va yirik blokli asoslardan foydalaniladi. Burg'ilash minorasining asoslari 3 metrdan 8,5 metrgacha bo'lgan metall qurilmadan tuzilgan bo'lib, ular alohida boltlar yordamida yoki payvandlangan bloklar yordamida va boshqa tez qotiriladigan birikmalardan tashkil topgan bo'ladi. Y yer yuzasiga bosimni kamaytirish uchun bloklarning tayanch qismlari yetarli kattalikka ega bo'lishi kerak. Bloklarning tuzilishi, jihozlarning qulay joylashishi va texnik xizmat ko'rsatish uchun juda oddiy bo'lishi zarur. Bunda asos tebranishlarga beriluvchan bo'lmasligi, xizmat qilayotgan shaxsga zarar yetkazmasligi kerak. Burg'ilash uskunasi asosi quyidagilardan tuzilgan bo'ladi: Minora, chig'ir va enyergetik bloklardan. Bundan tashqari shamlarni joylashtirish uchun alohida supacha, yeritmalarni tayyorlash uchun alohida uskunar bo'lishi kerak. Sirkulyasion sistemadagi jihozlar, elektr agregatlari, moy, yoqilg'i idishlari, kompressor stansiyasi va isitish jihozi hamda boshqa yordamchi jihozlar, asosi metall bo'lgan «CHana» tipidagi quvurlardan ishlangan moslamadan tayyorlangan bo'ladi.

Ko'tarma yo'lakchalar. Yo'lakchalarning o'ng va chap tomonlarida stellajlar joylashtirilgan. Bu stellajlar engil metall konstruksiyadan tashkil topgan bo'lib, y yer yuzasiga tayanuvchan balkaga payvandlangan.

Himoya vositasi. Burg'ilash brigadasidagi ishchilarga, xizmat ko'rsatayotgan shaxsga va ish sharoitini yaxshilash maqsadida «himoya vositasi» ishlatiladi. Himoya vositasi ikki guruhga bo'linadi:

1. Burg'ilash nasoslarini, kuch uzatkichlarni, kompressor stansiyalarni, burg'ilash yeritmasini tayyorlovchi va tozalovchi jihozlarni, tushirib-ko'taruvchi agregatlarni (BU-4000, BU-5000, BU-300) himoya vositasi bilan jihozlash.

2. Minorani himoya vositasi bilan jihozlash.

Agar minoraga himoya vositasi ish maydonchasidan 6-8 metr balandlikda o'rnatilsa, xizmat ko'rsatayotgan shaxsni shamolni to'g'ri ta'sir qilishidan saqlaydi. Minorani himoyalashda asosan metall devor (list) lar ishlatiladi.

Burg'ilash uskunalarini qurish. Burg'ilash minoralarini qurishni 2 ta bosqichga bo'lish mumkin:

- 1-Quduqni burg'ilash uchun y yer yuzasida jihozlarni tayyorlash.

- 2-Quduqni burg'ilash jihozlarini tayyorlash.

- 1-bosqichda maydonni tekislash, fundamentni tayyorlash, burg'ilash jihozlarini olib kelish, yig'ilgan mexanizmlarni og'irlik hosil qilmasdan tekshirish, minorani sinash va ishga tushirish.

- 2-bosqichda burg'ilash jihozlarini to'xtovsiz ishlashini ta'minlash, o'z vaqtida va sifatli ta'mirlash ishlarini bajarish hamda o'z vaqtida extiyot qismlar bilan ta'minlab turish amalga oshiriladi.

Fundamentni qurish. Burg'ilash minorasini asosidagi tayanch qismi va tuzilishiga qarab y yer yuzasida fundament maydonchasi tayyorlanadi. Ko'pgina burg'ilash uskunalari metall konstruksiyali bloklarda o'rnatilgan bo'ladi. Masalan: Enyergetik va nasos bloklari, chig'ir. Metall konstruksiyaning bu jihozlarda ishlatilishi tebranishlardan saqlash vazifasini bajaradi. Bu metall konstruksiya betondan quyilgan maxsus fundamentlar ustida joylashtiriladi.


Quduqni qurishni loyihalashtirilayotganda asosan quyidagilarni hisobga olish kerak:

1. Burg'ilash minorasi ostidagi fundamentni joylashtirayotganda, burg'ilash uskunalarining markazi qilib quduq tanlanadi.

2. Jihozlarni shunday joylashtirish kerakki, suv havzalari, o'tuvchi yo'llar, elektr tarmoqlari yaqinroq bo'lishi lozim. Yordamchi maydonchalar va burg'ilash maydonchasi juda qisqartirilgan bo'lishi lozim.

3. SHamol yo'nalishiga qarab dizellarning yoqilg'i idishlarini va dizeldan chiqadigan tutun uchun quvur tarmog'i o'tkazilishini tanlash lozim.

4. Agar burg'ilash uskunalari elektr toki bilan ishlaydigan bo'lsa elektr podstansiyasini qurish lozim.



28-rasm. BU-2500 EP elektr uzatmali burg'ilash uskunasiining umumiy ko'rinishi.

1-poydevor; 2-minora; 3-stellaj; 4-burg'ilash shlangi; 5-yo'naltiruvchi quvur; 6-vyertlyug; 7-kryukoblok; 8-po'lat arqon; 9-balkon; 10-kronblok; 11-minora oyog'iga o'rnatilgan narvon; 12-quvurlarning tagligi; 13-rotor; 14-yordamchi chig'ir; 15-asosiy chig'ir; 16-kuch uzatmasi; 17-burg'ilash nasosi; 18-yordamchi qurilmalar shaxobchasi; 19-20-qabul qiluvchi sig'implar; 21-tozalash mexanizmlari; 22-nov.

Minorani qurish. Har-xil ko'rinishdagi minora uchun minorani tiklash ishlari ham har-xil bo'ladi. Uralmash 3000, Uralmash 4000, Uralmash 5000, Uralmash 2000 (A-simon minoralar) da minorani yig'ish ishlari gorizontal holatda bajariladi. Bunda kronblok, balkon, magazin, harakatlanuvchi sentrator, ko'tarib-tushirish asboblari majmuasi va boshqa yordamchi jihozlar – minora gorizontal holatda bo'lganda joylashtiriladi. Yuqoridagi ishlar bajarilgandan keyin burg'ilash minorasi burg'ilash chig'iri yordamida ko'tariladi. Minorani ko'tarish 30-40 minut oralig'ida davom etadi. A-simon minoraning qulaylik tomoni – minora gorizontal holatda bo'lganda, barcha mexanizm va moslamalar minorani o'zida joylashtirilgan bo'ladi. To'rt oyoqli minoralar uchun Uralmash 3000 va Uralmash 5000 da maxsus yordamchi ko'targichlar mavjud.

VBA-58-400 minorasini tiklashda, pastda aloxida qilib yig'ilgan seksiyalarni yordamchi kran yordamida pastdan yuqoriga qarab joylashtirilib boriladi. Har bir joylashtirilgan seksiyalar bir-biriga ankyerli boltlar yordamida biriktiriladi.

1.10.Suv ustida neft va gaz quduqlarini burg'ilash.

XX asrning 80-yillariga kelib dunyoning dengizga chiqish imkoniyati bor 100 dan ortiq davlatlari kontinental shelfda neft va gaz konlarini qidirish ishlarini olib bordi. SHu jumladan, 50 dan ortiq davlatlar kontinental shelfda neft va gaz konlarini ishlatmoqda. Kontinental shelfdan olinayotgan neftning miqdori dunyo bo'yicha yillik qazib olinayotgan neftning 20-25% ni va gazni 15-18% ni tashkil etadi.

Dunyo bo'yicha kontinental shelfdan eng ko'p neft olinadigan hududlarga Meksika kurfazi va Kaspiy dengizi kiradi.

SHu kunlarda dengizda burg'ilangan quduqlar soni 100 mingdan oshib ketdi, suv satxining balandligi 300 metrdan oshib ketgan xollarda ham neft qazib chiqarilmokda. Suv ustida burg'ilangan neft quduqlarining chuqurligi 1800 metrgacha borib etdi.

Suv ustida neft va gaz quduqlarini burg'ilash suv satxining balandligiga qarab sun'iy orolchalar – platformalardan (suv satxi 20 metrgacha), o'zi ko'taruvchi suzuvchi burg'ilash qurilmalaridan (suv satxi 100 metrgacha), yarim cho'kkan suzuvchi burg'ilash qurilmalaridan (suv satxi 300 – 600 metrgacha) va suzuvchi burg'ilash kemalaridan (suv satxi 600 metrdan ko'p bo'lganda) amalga oshiriladi.

Dunyo bo'yicha yiliga burg'ilanayotgan quduqlarning qariyib 35-40% i AQSH ga tegishli. Borgan sari suv satxi baland hududlar o'zlashtirilmoqda. SHimoliy dengizni tezlik bilan o'zlashtirilishi natijasida Buyuk Britaniya, Norvegiya kabi davlatlar nafaqat o'z extiyojini qondirish balki chetga neft sotish imkoniyatiga ham ega bo'lishdi.

MDX hududida dengizda burg'ilangan quduqlar asosan Kaspiy dengizi shelfida bo'ldi. Keyinchalik Saxalin oroli atrofida ham dengiz satxida ko'plab quduqlar burg'ilandi.

Xozirgi kungacha MDX hududida eng chuqur burg'ilangan quduq Ozarbayjonda Bulla – dengiz konida bo'lib, chuqurligi 6200 metrni tashkil etadi. Ozarbayjon hududidagi dengizda burg'ilangan quduqlarning boshlang'ich neft maxsuldorligi miqdori 500 t/sutka va gaz miqdori 700 ming m³/sutkani tashkil etadi.

1.11.Suv ustida burg'ilash uchun muqim poydevorlar.

Suv ustida burg'ilash ishlarini olib borish uchun birinchi poydevorlar 1934-1936 yillarda Kaspiy dengizning Ilich kurfazida va Artem orolida qurilgan. Bu poydevorlar quvurlardan ishlangan qoziq oyoqlar ustiga o'rnatilgan bo'lib chuqur bo'lmagan quduqlarni burg'ilashga mo'ljallangan.

1946 yilda muhandis L.A.Mejlumov tomonidan tayyor bo'lma ko'rinishdagi poydevorlarni (bu poydevorlar muallif ismi sharifining bosh harfidan kelib chiqib – LAM deb ataldi) taklif etdi. Bu poydevor o'zining tayyor holda ekanligi tufayli uni dengizda yig'ish va butlashga hojat qolmadi. LAM turidagi poydevorlarni dengiz sharoitida bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga butun xolicha ko'chirib o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lindi.

1949 yilda LAM turidagi poydevorni muhandislar L.A.Mejlumov, S.A.Orudjev va YU.A.Safronovlar tomonidan qayta ko'rib chiqilib anchagina o'zgartirishlar kiritishdi. Bu poydevor MOS (mualliflarning familiyalarini birinchi harfidan) degan nom oldi. Bunday poydevorlar bilan dengiz satxining chuqurligi 20 metrgacha bo'lgan joylarda quduqni burg'ilash imkoniyati tug'ildi.

MOS turidagi poydevorlar bilan Kaspiy dengizining Apsheron arxipelagi atrofida ko'plab dengizdagi neft konlarini burg'ilash, ularni chegaralarini, zahiralarini aniqlash va ishga tushirish imkoniyati yuzaga keldi.

Keyingi izlanishlar natijasida MOS turidagi poydevorlarga ko'plab o'zgarishlar kiritilib, mukammallashtirish natijasida Gipromorneft institutining xodimlari tomonidan yaratilgan Gipromorneft–1 poydevori yuzaga keldi. Bu poydevor bilan dengiz satxidan 40 metrgacha bo'lgan chuqurlikda ham quduqlarni burg'ilash imkoniyati yaratildi. Xozirgi vaqtda suv satxining balandligi 110-120 metrgacha bo'lgan xollarda ham quduqni burg'ilash imkonini beradigan poydevorlar yaratildi.

Mufta ulovli obsadka quvurlari uchun bu qiymat F.I.Yakovlev formulasini bilan topiladi:

$(G) = \dots$?

D_{sr} - rezbaning o'rtacha diametri, m

$\Delta =$

r_{Δ} - rezba chuqurligi, m.

D - obsadka quvuri tashqi diametri, m

Δ - rezba ochilgan joyning devori qalinligi, m.

bu erda S - quvurning tekis qismi devori qalinligi, m.

α - rezba uzunligi, m. α - 60 - rezba burchagi.

μ - po'latni po'latdagi ishqalanish koeffitsienta 0,18.

(o'ning hisoblangan natijalari tegishli texnik adabiyotlarda keltirilgan bo'lgadi.

Obsadka quvurlarini ichki bosim ta'sirida deformatsiyalanishi. Deformatsiya bosiladigan ichki bosim qiymati Mariotta formulasini bilan aniqlanadi:

σ_e

Mustahkamlik zahirasini hisobga olgan holda yo‘l qo‘yiladigan ichki bo‘sim qiymati quyidagicha bo‘ladi.

K - ichki bosimga mustahkamlik zahira koeffitsienti. $K \geq 2$ -nippel ulovli obsadka kuvurlari uchun;

$K_j = 1,25$ -diametri 219 mm. gacha birlan muftali obsadka kuvurlari uchun;

$K = 1,65$ -diametri 219 mm. dan katta bulgan quvurlar uchun.

Obsadka quvurlarini tashqi bosim ta‘sirida deformatsiyalanishini hisoblash. Obsadka quvurlari quduqlarga teskari klapanlar yordamida tushirilganda, uning ichi bo‘sh bo‘ladi. Bunda quduqdagi yuvish suyuqliklari obsadka quvurlarni siqishga harakat qiladi. Kolonnaning eng ostki qismi gidrostatik bosim ta‘sirida bo‘ladi.

Kolonnadagi suyuqlik sathini maksimal pasaytirish qiymati aniqlanadi.

bu erda $K_3 = 1,3 - 1,5$ (mustahkam tog‘ jinslarida kichik va kam mustahkam jinslarda katga qiymati olinadi).


Rsm- trubalar deformatsiyalanadigan tashqi bosim, . —7

bu erda $K = S/d$ -quvur devori qalinligini uning diametriga nisbati; Δ -oqish chegarasi, Pa; E-egilish moduli, Pa, obsadka quvurlari uchun $E = 2,1 \cdot 10^5$ Pa e-ovallik koeffitsienta, $e = 0,005$ -kolonkaviy burgilashda ishlatiladigan quvurlar uchun, $e = 0,01$ -muftali diametri - 219 mm. gacha, $e = 0,02$ -muftali diametri 219 mm.dan katta quvurlar uchun.

Birlamchi kolonkaviy quvurlarning sortamenta obsadka kuvurlari bilan unifitsirovat qilingan, ya‘ni bir xil ishlangan. Faqat kolonkaviy quvurlar katta tugri chiziqlikka ega va yuqori sifatli po‘latlardan tayyorlanadi (mustahkamlik guruhidagi K turidagi po‘lat).

Bog‘lovchilar.

Burg‘ilash tizmasi uchun bog‘lovchilar burg‘ilash tizmasining elementlarini bir – biriga bog‘lash uchun xizmat qiladi.



Bog‘lovchilar turi.

a- o‘tuvchi yoki ximoyalovchi (PP); b-muftali (PM); v – nippelli (PN).

Hozirgi kunda 5 xil turdagi bog‘lovchilar qo‘llaniladi. Ularni 2 guruxga bo‘lish mumkin: 1) Shtangali bog‘lovchilar – boshqaruvchi quvurni vertlyug va burg‘ilash quvurlari bilan bog‘lash uchun xizmat qiladi;

2) Oraliq bog‘lovchilar -- tizmaning boshqa elementlarini bog‘lash uchun ishlatiladi.

Bog'lovchilarning vazifasi quyidagi jadvalda keltirilgan.


Jadval-7

Bog'lovchi-lar guruxi	Bog'lovchi turi	SHartli belgisi	Vazifasi
Shtan gali	Yuqorigi	PSH V	Boshqaruvchi quvurni vertlyug bilan bog'lash uchun ishlatiladi.
Oraliq	Ostki	PSH N	Boshqaruvchi quvurni burg'ilash tizmasi bilan bog'lash uchun ishlatiladi.
	Ximoya-lovchi va o'tkazuvchi	PP	A) Ko'tarib-tushirish operatsiyasi vaqtida boshqaruvchi quvur ostki bog'lovchisini tez emirilishdan ximoya qilish uchun ishlatiladi. B) Boshqaruvchi quvur yoki burg'ilash quvurlariga bir xil kattalikdagi quvurlarni yoki boshqa kattalikdagi asboblarni bog'lash uchun ishlatiladi.
	Ikki muftali Ikki nippe lli	PM	V) Bir turdagi qulf rezbasidan boshqa turdagi qulf rezbasiga o'tish uchun ishlatiladi. (Masalan, ZN qulfidan ZSH qulfiga o'tish uchun).
		PN	Xar xil turdagi asboblarni burg'ilash tizmasiga bog'lash uchun ishlatiladi.

Boshqaruvchi quvurlar.

Boshqaruvchi quvurlar rotordan beriladigan aylanma xarakatni burg'ilash tizmasiga etkazish vazifasini bajaradi. Boshqaruvchi quvurlar uch xil ko'rinishda ishlab chiqariladi:

- 1) Kvadrat shaklida:
- 2) Olti burchakli:
- 3) Xochsimon ko'rinishda:



Yig'ilgan konstruksiyadagi boshqaruvchi quvur.

Hozirgi kunda neft va gaz quduqlarini burg'ilash uchun asosan kvadratsimon boshqaruvchi quvurlar ko'p ishlatiladi. Ular kvadratsimon qalin devorli Shtanga 2, yuqorigi Shtangali bog'lovchi (PSHV) 1 va ostki Shtangali bog'lovchi (PSHN) 3 dan tashkil topgan. Shtanganing yuqorigi yakunida chap yo'nalishli tashqi rezba yo'nilgan, ostki yakunida esa o'ng yo'nalishli ostki rezba yo'nilgan. Yuqorigi Shtangali bog'lovchi Shtangaga bog'lanish uchun chap yo'nalishli ichki rezbaga ega, ikkinchi tomoni esa chap yo'nalishli ichki qulf rezbasiga ega. Ostki Shtangali bog'lovchi esa Shtangaga bog'lanish uchun o'ng yo'nalishli ichki quvur rezbasiga ega, ikkinchi tomoni esa o'ng yo'nalishli tashqi qulf rezbasiga ega. Yig'ilgan boshqaruvchi quvurni, chap yo'nalishli tashqi qulf rezbasiga ega bo'lgan vertlyug stvoliga bog'lovchi 2 orqali bog'lanadi. Bu erda bog'lovchini qo'llashdan maqsad vertlyug stvolining rezbasini xamda yuqorigi Shtangali bog'lovchining rezbalarini tez ishdan chiqishini oldini olishdir.

Ostki Shtangali bog'lovchining qulf rezbalarini tez ishdan chiqishini oldini olish uchun unga qo'shimcha qilib saqllovchi bog'lovchi 6 o'rnatiladi.

Boshqaruvchi quvurlar uchun kvadrat Shtangalar uzunligi 16,5 metr, mustaxkamlik guruxi D va K bo'lgan po'latdan, bog'lovchilar esa 40 XN ($\delta = 735$ Mpa) markali po'latdan tayyorlanadi.

2.13.Tal tizimi va sim arqon(kanat)ni hisoblash

Lebedkalarining yuk kutarish kobiliyatidan ortik ogirlikka ega bulgan burgilash va obsadka kuvurlarini kutarish va tushirish uchun tal tizimlari ishlatiladi. Tal tizimlari minoraning yukori kismiga urnatiladigan xarakatsiz kronbokdan va xarakatlanuvchi tal blokidan xamda kronblok bilan tal bloklarini boglovchi tal pulat arkonlaridan iborat.

Kolonkaviy burgilashda kuyidagi tal osnanstkalari ishlatiladi: 0x1; 1x2 va 2x3., bu erda birinchi son tal blokidagi roliklar sonini va ikkinchi son kronblokdagi roliklar sonini bildiradi.

Tal bloki osib kuyiladigan pulat arkoni novdalari kuyidagi formula bilan aniklanadi.

$$m_t = Q_{kr} / P_l \cdot \eta$$

bu erda Q_{kr} – kryukdagi eng ogir kolonkaning vazni, kg.

P_1 – lebedkaning yuk kutarish kobiliyati, kg /pasportidan olinadi/.

η – tal tizimining foydali ish koefitsienti.

F.I.K. ning takribiy kiymati pulat arkonlar novdasining soniga $/m_t/$ karab olinadi.

Jadval-8

m_t	1	2	3	4
η	0,97-0,96	0,95-0,98	0,92-0,90	0,90-0,88

Kryukga ta'sir etuvchi nominal ogirlik eng ogir burgilash yoki obsadka kuvurlari kolonnasi vazinlaridan va kolonnaning kudukdan kutarish sodir buladigan ishkalanish kuchlari yigindisidan tashkil topadi.

Suyuklik bilan tuldirilgan kudukka tushiriladigan kuvurlar massasi kuyidagi formula bilan aniklanadi.

$$Q_{kr}=k \cdot \alpha \cdot g \cdot q \cdot L(1-\rho/\rho_m)$$

Bu erda α – ulovlar Hisobiga kuvurlar oshishini inobatga oluvchi koefitsient.

Nippel ulovli kuvurlar uchun

$$\alpha=1,05$$

Mufta – kulf ulovli kuvurlar uchun

$$\alpha=1,1 \text{ kilib olinadi.}$$

K – burgilash kuvurlari va kuduk devorlari orasidan ishkalanish kuchlarini inobatga oluvchi koefitsient

$$K=1,25-1,5$$

Hisobdan chikkan m_t ning kiymati butun songa kup tomoniga yaxlitlanadi.

Kronblok va tal blokidagi roliklar soni kuyidagi formulalar yordamida Hisoblanadi.

$$n_{k.bl}=m_t+2/2; \quad n_{t.bl}=m_t/2;$$

Kronblok va tal blokidagi roliklar sonidan kelib chikib, tal tizimining osnastkasi kabul kilinadi. Masalan: $n_{k.bl}=2$, $n_{t.bl}=1$ chikkanda 1x2 ostanstka kabul kilinadi.

Tal arkonining diametri statistik mustaxkamlik Hisoblari asosida kuyidagi formula yordamida tanlanadi.

$$R_p=K_{z.p} \cdot R$$

Bu erda R_p pulat arkonini uzuvchi kuch mikdori, kN.

$K_{z.p} \geq 2,5$ – mustaxkamlik zaxirasi koefitsienti.

R – Lebedkaning minimal tezligidan tortish kuchi, kN.

$$R = N \cdot \lambda \cdot \eta / v_{min}, \text{ kN}$$

bu erda N – dvigatelning nominal kuvvati, Vt.

λ – dvigatellarga tushadigan ortikcha yukni Hisobga oluvchi koefitsient

Asinxron elektr dvigatellari uchun $\lambda=1,8+2,2$,

Ichki yonish dvigateli uchun $\lambda=1,1$

$\eta=0,96$ – dvigateldan lebedka barabanigacha bulgan uzatma foydali ish koefitsienti.

Y_{min} - lebedkaning minimal tezligi, m/s. /burgilash kurilmasi texnik tavsifnimasidan olinadi./

Burgilash ishlarida chuzilishdagi mustaxkamlik chegarasi $(157 \div 166) \cdot 10^7$ Pa bulgan pulatlar ishlatiladi.

CHuzilishdagi mustaxkamlik chegarasini kabul kilib va uzuvchi kuch mikdoriga karab R_p XXIV jadvaldan tegishli diametrdagi arkon tanlanadi.

III-BOB. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI.

3.1.Burg'ilash brigadasining vazifalari.

Chuqur bo'lmagan va chuqur quduqlarni burg'ilash ishlarining tarkibi amalda bir xil qoladi, ishning xususiyati burg'ilash chuqurligi, qo'llaniladigan burg'ilash jihozlarining turi, kichik mexanizatsiya vositalari bilan ta'minlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Agarda quduqlarni chuqurlashtirishda burg'ilash ishlari murakkabliklar sodir bo'lmasdan normal sharoitda olib borilganda, burg'ilash bilan to'g'ridan-to'g'ri burg'ilovchi shug'ullanadi, pultni oldida bo'ladi, quduqni qazishda texnologik rejimni va uni boshqarishni amalga oshirishni nazorat qiladi.

Burg'ilash brigadasining a'zolariga tushirish - ko'tarish jarayonlarini bajarishda hamda mustahkamlash tizimini tushirishda asosan katta topshiriq yuklatiladi. Bu erda burg'ilash brigadasining a'zolari birgalikda ishlashi, o'zining majburiyatlarini yaxshi bilishi, bilimini ishga qo'shishi zarur bo'ladi.

Quduqda tushirish – ko'tarish jarayonlari hamma vaqt amalga oshiriladi. Bunda jins parchalovchi asboblarni emirilishi sababli hamda yangi sharoitlarda boshqa turdagi asboblarni qo'llashda almashtiriladi. Ba'zida boshqa sabablarga ko'ra burg'ilash tizmasini ko'tarishga to'g'ri keladi, masalan quduqda geofizik tadqiqotlar olib borishda, mahsuldor qatlamni sinashda, turbobur ishida nuqson paydo bo'lganda va hakoza.

Burg'ilash tizmasini tushirish – ko'tarish jarayonlarida tizma uzun shamlarga ajratiladi, ya'ni bir nechta burg'ilash quvurlari biriktiriladi. SHamning uzunligi minoraning balandligiga bog'liq bo'ladi, uning 2/3 qismiga teng bo'ladi, minoraning balandligiga 40 – 42 metr bo'lsa 27 – 28 uzunlikdagi shamni chiqarish mumkin, minora balandligi 53 metr bo'lsa, shamning uzunligi 36 metr bo'ladi. Bunda shamlar tik holatda minoraning ichiga joylashtiriladi, shuning uchun tushirish – ko'tarish jarayoni yuqori ish holatida bajariladi.

Quduqlarni chuqur burg'ilashda asboblarni tushirish yoki ko'tarish davridagi ishlarni kuzatamiz.

Burg'ilovchi asboblarni ko'tarish bo'yicha qaror qabul qilgandan keyin bir oz vaqt davomida quduq yuviladi, quduqning chuqurligi katta bo'lganda stvol bo'yicha ko'p miqdordagi quyqumlar burg'ilash eritmasining tarkibida to'planadi va uni yer ustiga olib chiqarishga to'g'ri keladi. YUvish tugallanishi bilan burg'ilovchi chig'irni boshqaradi, hisob bilan quduqni tubidan asbobni ko'taradi, rotor stolining ustida etakchi quvurning pastki uzatmasi ko'rinib turishi kerak. Etakchi quvur ko'tarilganga qadar burg'ilash ishchilari rotor stolidan kichik ich qo'ymani (ponani) chiqarib oladi. Pastki uzatmaning tagiga elevator qo'yiladi va rezbali birikmalardan mashina kaliti yordamida echiladi keyin esa quvurlarni hammasi to'liq echib olinadi. Rezbali birikmalarni echib olish vaqtida og'ir etakchi quvur vertlyug yordamida og'irligi bo'yicha ushlab turiladi. Ajratilgan etakchi quvur ko'tariladi va maxsus moslama yordamida pastki uchiga mahkamlanib ko'tarib olinib shurfga qo'yiladi. SHurfning chuqurligi etakchi quvurning uzunligiga moslanadi. Burg'ilovchining birinchi va uchinchi yordamchilari uning tagiga elevatorni yotqizadi.

Birinchi yordamchi AKB – 3 avtomatik kalit bilan pultni yonida turadi, burg‘ilash tizmasiga bog‘lab tutib turuvchi qurilmani siljitadi, uni qulfni birikmalarga mahkamlaydi (qulflaydi) va rezbani bo‘shatadi.

Ilgakda joylashgan prujinaning ta’siri ostida, ajratilgan sham ko‘tariladi va uning pastki uchi rezbali birikmadan chiqadi. Uchinchi yordamchi birinchi yordamchi yordamida shamni shamdonga o‘rnatadi.

Burg‘ilovchi chig‘irning tormozini bo‘shatadi va shamni shamdonga o‘rnatadi. Ikkinchi burg‘ilovchi yordamchisi (yuqorida ishchi o‘rni) so‘rida turib elevatorni bo‘shatadi va shamning yuqori uchini barmoqning orqasiga keltiradi. Burg‘ilovchi chig‘irni tormozlab elevatorni tushiradi. Elevator rotor stoliga tushishi bilan birinchi va uchinchi yordamchilar undan shtropni bo‘shatadi va ularni elevatorga burg‘ilash tizmasini ushlab turuvchi keltiradi.

Chig‘ir yordamida quduqdan ikkinchi sham ko‘tarib olinadi va hakoza. Burg‘ilash tizmasi ko‘tarib olinganda burg‘ilash eritmasining bir qismi ishchi maydonga to‘kiladi va uni kuchli ifloslantiradi. Burg‘ilash quvurlaridagi yuvuvchi suyuqliklarni yo‘qotish uchun ko‘tarib olishda burg‘ilash tizmasiga etak kiydiriladi yoki quvurlar quduqdan ko‘tarib olinganda shlang yordamida suv bilan yuviladi.

Burg‘ilash tizmasini quduqqa tushirish jarayoni huddi shunday ketma – ketlikda olib boriladi. Burg‘ilash tizmasi ham asboblarni ko‘tarish kabi quduqda rotor stoliga o‘rnatilgan elevatorga osiladi. Burg‘ilovchi erkin elevatorni chig‘ir yordamida so‘ri sathigacha ko‘targuncha, yuqoridagi ishchi navbatdagi shamni barmoqdan chiqaradi va uni elevatorga kiydirishga tayyorlaydi. Elevator tizmada bo‘lishi bilan, yuqoridagi ishchining signalidan burg‘ilovchi shamni ko‘taradi. SHam shamdondan olinadi va uchinchi yordamchi ushlab turadi, o‘zining xususiy og‘irligi bilan rotorga qarab harakatlanadi. Avval shamning pastki uchi burg‘ilash tizmasining yuqori yon tomoni kirgizguncha, uchinchi yordamchi rezbalarni maxsus yog‘ bilan yog‘lashga ulguradi. Rezbali birikmalar aylanma kalit yoki AKB – 3 avtomatik kalit yordamida burab mahkamlanadi.

Burg‘ilash tizmasining rezbasi to‘lik biriktirilgandan so‘ng chig‘ir ko‘tariladi va undan keyin pastki elevator ilinadi va yon tomonga qo‘yiladi. Burg‘ilash tizmasi quduqqa sekin asta yuqori elevatorga tirkalguncha rotor stoliga tushiriladi. Undan keyin esa burg‘ilash tizmasidagi elevatordan shtropni birinchi va uchinchi yordamchilar oladi va bo‘sh turgan elevatorga mahkamlaydi va uni so‘ri sathigacha ko‘taradi. Xuddi shu tarzda qolgan shamlar tushiriladi.

Eng so‘nggi sham quduqqa tushirilgandan keyin hamma tizma elevatorga osiladi, ilgak vertlyugning halqasiga kiydiriladi. CHig‘ir yordamida etakchi quvur shurfdan olinadi, minoraning o‘qiga siljiriladi va burg‘ilash quvuri bilan biriktiriladi, undan keyin hamma tizim ko‘tariladi va elevator bo‘shatiladi. Burg‘ilash nasoslari qo‘shiladi va yuvish bilan asbob quduqning tubiga sekin – asta tushiriladi. Etakchi quvur kichik pona orqali rotor stoliga mahkamlanadi va burg‘ilash boshlanadi.

Burg‘ilash brigadasining zaruriy paytda almashtirish uchun shtroplar bir elevatordan boshqasiga ko‘chiriladi, ponali tutqichlar qo‘llaniladi, tizmani rotorda ushlab turadi. Bunday sharoitda doimiy shtroplarda osilgan holatda bitta elevator bilan ishlashning imkoniyati bo‘ladi.

Burg‘ilash jarayonida quduqlarni chuqurlashtirishda vaqt o‘tishi davomida burg‘ilash tizmasi uzaytirib boriladi. Yuqoridagi etakchi quvurning yuqori ishchi

qismi rotor stoliga etib kelganda quvurlarni uzaytirish amalga oshiriladi. Buning uchun oldindan burg'ilash quvuri tayyorlanadi, uning uzunligi etakchi quvurning ishchi uzunligidan uzun bo'lmazligi kerak. Burg'ilash tizmasini uzaytirish jarayonida etakchi quvur rotordan to'liq chiqquncha ko'tariladi, elevatorga ilinadi, yangi yuqori quvurning muftasini tagiga kirib turishi kerak. Undan keyin esa etakchi quvur ajratiladi, tizmaning erkin uchiga uzaytiriladigan quvur ulanadi va elevatorga ilinadi. Tizma chig'ir bilan ko'tariladi va bo'shagan pastki elevatordan olib qo'yiladi. Tizma rotor stoliga yuqori elevatorga tirkalguncha tushiriladi va etakchi quvur bilan biriktiriladi.

Quduqlarni chuqur burg'ilashda tizma ko'p marta uzaytiriladi va ko'p vaqt sarflanadi, shuning uchun bu jarayonni soddalashtirishga to'g'ri keladi. Mustahkamlash quvurlarini tushirish juda qiyin ish va masul ishlardan biri hisoblanadi. Buning uchun burg'ilash brigadasi a'zolari jiddiy tayyorgarlik kurishadilar, chunki jarayon bekorga to'xtab kolmasligi kerak. Ishonchlikni ta'minlash uchun tizmaga boshmoq va bir nechta pastki quvurlar payvand qilinadi, shuning uchun mustahkamlash tizmasini quduqqa tushirishni boshlashdan oldin elektr payvandchi talab qilinadi.

SHunday qilib, mustahkamlash quvurlari tizmaga bittalab alohida biriktiriladi, tushirish vaqtida vaqtinchalik ishchi so'ri o'rnatiladi hamda ishchi balandligi 10 – 10,5 metrga yaqin bo'ladi va uning balandligi mustahkamlash quvurning uzunligiga teng bo'ladi.

Mustahkamlash tizmasi elevatorga qo'yiladi yoki spayderdan foydalanib tushiriladi, tizma ponalarda ushlanib turiladi. Stellajda taxlanib qo'yilgan mustahkamlash quvurlarining har biri alohida elevator yordamida quduq ustiga uzatiladi va ular muftaning tagida ushlab turiladi. Mustahkamlash quvurlarida rezbalarni egri ketmasligi va shikastlanmasligi uchun juda ehtiyotkorlik bilan buraladi. Navbatdagi mustahkamlash quvuri biriktirilgandan so'ng ponalarni yoki elevatorni bo'shatish uchun hamma tizma ko'tariladi, chunki u olib qo'yiladi. Undan keyin esa yuqori elevator rotorga asta sekin tushiriladi yoki pona harakatga keltiriladi. Hamma jarayon navbatdagi mustahkamlash quvuri uchun ham takrorlanadi. Burg'ilash brigadasi quduqlarni qazish va stvolni mustahkamlash kabi asosiy ishlarni bajaradi va undan tashqari boshqa ishlarni ham. Bu ishlar quduq qurilish ishlarini tashkillashtirish shakliga bog'liq bo'ladi. Kompleks tashkillashtirishda burg'ilanadigan quduq uzoqroq va kengroq qo'llash amaliyotida qo'llaniladi chunki burg'ilash brigadasi minora montaj va demontaj ishlarini bajaradi, montaj davrida jihozlarni ta'mirlash, burg'ilashga va quduqlarni sinashga tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi. Bunday sharoitda burg'ilash brigadasining etarlicha minora montaj zvenosi kiritiladi. Maxsuslashtirilgan tashkiliy shaklga burg'ilash brigadasining ulushidan o'tish va quduqlarni stvolini mustahkamlash qoldiriladi.

Ishlarning qolgan siklini burg'ilash korxonasining yordamchi xizmatchilari yoki boshqa tashkilotlar bajaradi. Burg'ilash qurilishiga va jihozlarni montaj qilishga tayyorgarlik ishlarini burg'ilash korxonasining minora kurilish idorasining maxsus minora montaj brigadasi amalga oshiradi. Mustahkamlash tizmasini sementlash ishlarini maxsuslashtirilgan korxona perforatsiyalash hamda mahsuldor qatlamlarni sinashni geofizik xizmati va hako'zolar amalga oshiradilar.

3.2.Burg'ilashni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish vositalari.

Ma'lumki, burg'ilash tizmasini tushirish va ko'tarish bir qator bajarilishi qiyin bo'lgan jarayonlar bir biri bilan birlashib ketgan bo'lib, ulardan ko'pchiligi qo'lda amalga oshiriladi. Quduqlarni chuqurligini oshishi bilan yuklanma katta qiymatga oshib ketadi. SHunga muvofiq holda konstruktorlik tashkilotlarida asosiy kuch yangi asboblarni, mexanizmlarni va mashinalarni tushirish – ko'tarish jarayonlarini bajarishni engillashtirishga yo'naltirilgandir.

Mexanik kalitlarni o'rnida fizik mehnatga katta xarajatlarni sarflanishi talab qilingan va troslarning uzilib ketish xavfi bo'lganligi uchun, osma pnevmatik PBK turidagi kalitlardan foydalanila boshlandi. Burg'ilash quvurlarini burash bo'yicha asosiy jarayonlarni mexanizatsiyalashtirishning imkoniyati bo'ldi. AKB barqaror avtomatik kalitlardan to'liq foydalanish evaziga burg'ilash quvurlarini tirkab mahkamlash va bo'shatishdagi asosiy jarayonlar to'liq mexanizatsiyalashtirildi.

SHamlarni shamdonlarga o'rnatish va ularni quduqqa uzatish uchun mexanizatsiyalashtirish uchun MSP – 2 jamlanmasi ishlandi va tayyorlandi va bu 41 va 53 metr balandlikdagi koprovikli minorani jihozlash uchun mo'ljallangan.

MSP–2 jamlanmasining yordamida quyidagi jarayonlar mexanizatsiyalashtiriladi:

shamdonga shamni keltirish va o'rnatish; shamning yuqori uchidan tortish va barmoqqa o'rnatish; burg'ilash va mustahkamlash quvurlarini burab mahkamlash va ochish.

MSP–2 jamlanmasini hamda shunga o'xshash mashinalarni va mexanizatsiyalashtirish tizimini ishlashni to'liq avtomatlashtirish uchun baza sifatida foydalaniladi. Burg'ilash tizmalarini tushirishni va ko'tarishni avtomatlashtirish ikki yo'nalishda olib borildi: birinchidan asosiy texnologik sxemalarni saqlagan holda hamda vaqt bo'yicha ulardan ba'zi birlarini birlashtirib, tushirish–ko'tarish jarayonlarini avtomatlashtirish va ikkinchidan takomillashgan yangi texnologik sxemalarni avtomatlashtirish.

Birinchi yo'nalish burg'ilashda tushirish-ko'tarish jarayonini mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish va ATK (avtomatik tushirish-ko'tarish) tizimlarni majmuasini yaratish VNII neftmashining asboblarni avtomatik to'xtovsiz ko'taruvchi gidravlik tizimini amalga oshirish o'z o'rnini topdi.

ATK tizimi hozirgi vaqtda ba'zi qurilmalar bilan jihozlangan bo'lib, 3000 – 4000 metrgacha chuqurlikdagi quduqlarni burg'ilashga (masalan, BU – 125 qurilmasi) mo'ljallangan.

ATK tizimiga bajaruvchi mashinalar va mexanizatsiyalar qo'shilgan: mexanizatsiyalashgan shamlar avtomatik barqaror (ko'chmas) ABK (avtomatik burg'ilash kaliti)ni ponali tutqichlar avtomatik elevator burg'ilash quvurlarini o'tkazish uchun ichki kanalli tal bloking maxsus konstruksiyasi burg'ilash shamini koprda sementlash uchun qurilma pastki ishchi maydonchadan boshqariladigan shamni mexanik uzatish va ko'chirish jihozlar kiradi.

Burg'ilash quvurlarini burab mahkamlaydigan va echib oladigan avtomatlashtirilgan jamlanma: shamni shamdonga o'rnatishda uni shamdondan ko'tarib oladi va quduqning o'qiga chiqaradi, burg'ilash elevator bilan birgalikda quvurlar tizmasini tutish va avtomatik bo'shatishni boshqarish, bo'sh turgan

elevatorni tushirish va ko'tarish, shamlarni shamdonga o'rnatish va uni shamdondan chiqarib olish jarayonlari bilan mos kelishi (yoki birgalikda ishlatish); rotorda burg'ilash quvurlari birikmasini mahkamlash va ushlab turish.

Jamlanmaning mexanizmlari quyidagi tarzda ishlaydi. Burg'ilash tizmasi rotorga ponali tutqich yordamida osib qo'yiladi. SHamni ochib olish vaqtida uning yuqori qismidan markazlagich ushlab turadi, yani elevatordan tushirishda shanga ishlaydi va tirkaladi. Elevator rotorga qo'yiladi va burg'ilash tizmasining yuqori qismiga joylashtiriladi. Ajratilgan sham maxsus tutqich bilan ko'tariladi, yon tomonga ko'chiriladi va barmoqqa o'rnatiladi.

SHam ko'tarilganda tutqich markazlagichni ochadi va bir vaqtning o'zida uni bo'shatadi. SHamning pastki uchi ilgakli – kirgizgich bilan shamdonga kirgiziladi. Elevator burg'ilash tizmasini tutib turadi va u navbatdagi shamning balandligiga ko'tariladi.

ATK jamlanmasi faqat ishchilarning mehnatini engillashtirmasdan uning tarkibiy qismini ham o'zgartiradi. Agarda burg'ilovchining ikkita yordamchisi tal tizimining doimiy harakatlanadigan mexanizmlarining yaqinida burg'ilashning eng xavfli zonasida rotorga yaqin joyda to'g'ridan-to'g'ri ishlab, doimiy ravishda qo'lda ko'pgina jarayonlarni bajaradi. Bunda 3000 metr chuqurlikdagi quduqqa bir reys davomida tushirish va ko'tarishda 100 tonnaga yaqin yukni ko'chirgan bo'lsa, ATK jihozlari o'rnatilgandan keyin ularning ish jarayonlarining xavfsizligi ta'minlandi. Birinchi yordamchi burg'ilovchi ABK – 3 kalitlarini quduq ustidan olib ketish jarayonini avtomatik boshqarishni nazorat qiladi; ikkinchi yordamchi bilan bir qatorda turib, shamlarni tutish va ko'chirish mexanizmlarining boshqarish pultidan, uchinchi yordamchi esa tushirish – ko'tarish jarayonlarida qatnashishdan ozod qilinadi.

Burg'ilash tizmasini avtomatik to'xtovsiz tushirish-ko'tarishda, gidravlik boshqariladigan qurilma ishlab chiqarilgan va hozirgi kunda sanoat sinovidan o'tkazilmoqda.

3.3.Burg'ilash ishlarini bajarishda sanoat xavfsizligi.

Mehnatni muhofaza qilishning faoliyati sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitini tashkil qilish, professional kasalliklarni oldini olish va ularni sog'lomlashtirishga qaratilgan. Hamma korxonalarda, tashkilotlarda muassasalarda sog'lom va xavfsiz ishlash sharoitlarini yaratish korxonaning, idoraning, tashkilotning ma'sullariga yuklatiladi. Ma'muriyat ishlab chiqarish jarohatlarini oldini olish va takomillashgan xavfsiz texnik vositalarni joriy qilishga, sanitar – gigienik sharoitlarni taminlashga, ishchi xizmatchilarga professional kasalliklarni paydo bo'lishini oldini oluvchi vositalarni qo'llashga majburdirlar.

Burg'ilash ishlari o'zining xususiyatiga muvofiq ko'pgina o'ziga mos bo'lgan tomonlarga ega. Ulardan qo'yidagilarni ajratish muhimdir:

- burg'ilash ishlari to'xtovsiz kechayu – kunduz har xil iqlimiy sharoitlarda olib boriladi;

- burg'ilash maydonida bo'lgan burg'ilash xodimlari qisman iqlimiy omillardan va tashqi muhitning ta'siridan himoyalangan;

- quduq qurilishida ba'zi bir jarayonlar va operatsiyaning sikllari o'zining yuqori jadalligi bilan ajralib turadi va burg'ilash brigadasining a'zolarida kuchli ta'sirlanishni hosil qiladi;

- murakkab sharoitlarda quduqlarni burg'ilashda burg'ilash jihozlarida chegaraviy kattalikgacha yuklamalarni paydo bo'lishi, tebranishlar, shovqinlar aniq asab – psixologik kuchlanishlarni keltirib chiqaradi;

- kam o'rganilgan tumanlarda ayniqsa yuqori qatlam bosimli oraliqlarni burg'ilab ochishda kutilmagan xavfli holatlarni paydo bo'lish extimolining mavjudligi.

Burg'ilash xodimlarining yashash joylarini uzoqligi, ularni ish joyiga etib kelguniga qadar uzoq vaqt sarflanishi va charchash xolatlarini keltirib chiqaradi. Bunday sharoitda burg'ilash korxonasi ishchi xodimlari uchun normal sharoitni yaratish va quduq qurilishida xavfsizlikni ta'minlashi zarur hisoblanadi.

“O'zbekneftgaz” milliy xolding kompaniyasi tomonidan neft va gaz reglamentda keltirilgan bir qator asosli hujjatlarda sanoatda xavfsizlik qoidalarini bajarilishi bo'yicha burg'ilash korxonalarning majburiyati keltirilgan.

Korxonalarda mehnatni muhofaza qilish xizmati to'g'ridan to'g'ri bosh muhandisga bo'ysunadi va uning o'rinbosari boshqaradi. BIB dagi mehnatni muhofaza qilish bo'limi ham bosh muhandisga bo'ysunadi. Bo'limning asosiy vazifasi – ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarni oldini olish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish, jarohatlanishni oldini oluvchi tashkiliy texnik ishlanmalarni va sanitar – gigienik tadbirlarni ishlab chiqish, ilmiy texnik yutuqlarni qo'llagan holda ishlab chiqarish madaniyatini oshirish ishlari kiradi. Mehnatni muhofaza qilish BIB hamma bo'limlardagi mehnatni muhofaza qilish holatiga, hamma ma'sullikni olib boradi va xodimlarning ma'sulligi ham muhandisga yuklanadi.

Bosh muhandis va BIB kasaba uyushmasi mahalliy nazorat tashkilotlari bilan kelishilgan holda kasblar va ishlarning turi bo'yicha harakatdagi xavfsizlik qoidalari asosida ishlangan namunaviy ko'rsatmalarning me'yorlarini tasdiqlaydilar. Har uch yil davomida ishlab chiqarish ko'rsatmalari qayta ko'rib chiqiladi va qayta tasdiqlanadi.

BIB nomenklaturasidagi tadbirlarning rejasini chiqaradi. Unda baxtsiz hodisalarni, ishlab chiqarishdagi kasalliklarni va umumiy ish sharoitini yaxshilash bo'yicha oldini oluvchi tadbirlar kurib chiqiladi. Bundan tashqari tashkiliy – texnik tadbirlarning rejasida jamoa shartnomasida keltirilgan ishlab chiqarish sharoitlarini yaxshilashni amalga oshirish tadbirlari ham kurib chiqiladi.

Burg'ilash ishlarida xavfsizlikni kuchaytirishga yo'naltirilgan eng katta ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlar quyidagilar:

- burg'ilash xodimlarini malakasini oshirish, ishlab chiqarishda ishchilarning amaliy tajribalarini to'plash;

- burg'ilash ishlarini olib borishdagi xavfsizlik qoidalari bo'yicha tizimli ko'rsatmalar berish va ularni bilimini tekshirish;

- mehnatning tarkibini mustahkamlash;

- jihozlarni va qo'llaniladigan asboblarning texnik holatini tizimli nazorat qilish, buzilib qolishlarni oldini olish;

- umuman yangi mukammal texnikalarni hamda burg'ilash brigadasining ishlarini engillashtiruvchi qo'l mehnatini mexanizatsiyalashtirish vositalarini va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish jarayonlarini o'zlashtirish;

- ishlab chiqarishni yangi turdagi nazorat – o'lchov apparaturalari, bекitish vositalari va avariyaга qarshi himoyalovchi hamda xavfli holatlar sodir bo'lganda avtomatik signal beruvchi tizimlar bilan jihozlash.

Burg'ilash brigadasi a'zolarining ishlab chiqarishda jarohatlanishi, kasbiy tayyorgarligini etishmasligi, ishlarni bajarish qoidalarini va operatsiyani bajarish tartibini bilmasligi, mehnat tartiblarini qo'pol buzishlari, texnik xavfsizlik qoidalariga rioya qilmasliklari hamda konstruktiv kamchiliklar va qo'llaniladigan mexanizmlar va asboblarni sifatsiz tayyorlanganligi sababli kelib chiqadi. Neft va gaz sanoati xavfsizlik qoidalariga va qo'yilgan talablarga og'ishmasdan qattiq rioya qilish, burg'ilash ishlarining xavfsizligini ta'minlashning asosidir.

Hamma qoidalar talab qilish tavsifi bo'yicha ko'rsatuvchi, taqiqlovchi va ruxsat etuvchi turlarga ajratiladi.

Korxonaning kerakli nomenklaturasi bo'yicha ko'rsatuvchi (bo'yuruvchi) qoidalar aniqlangan bo'lib, navbatdagi harakatlarni xavfsizligini ta'minlaydi.

Taqiqlovchi qoidalar ko'rsatilgan holatlarda harakatni man qilishni yuklaydi. Ruxsat beruvchi qoidalarda aniq oraliqlarda yoki chegaralarda harakatlanishni havfsiz ekanligi ko'rib chiqilgan.

Yuqoridagi xarakatdagi qoidalarga muvofiq hamma ishlarni montaj qilish tugallangandan so'ng, bo'sh harakatda yurgizib sinaladi va burg'ilash qurilmasini maxsus komissiya qabul qiladi va bunda davlat texnik nazoratidan vakil qatnashadi. Komissiyaga quduqni yotqizish bo'yicha akt, burg'ilash jihozlariga texnik hujjatlar, quduqni qurishga geologik-texnik naryad, burg'ilash nasoslari, bosim chizig'ini va tal blokini ko'tarishni chegaralanish to'g'risidagi akt, elektr jihozlarini ishga qo'shish, qurilmalarning erga ulanish qarshiligini me'yoriga mos kelishi to'g'risidagi va holatini tekshirishning akti taqdim qilinadi. Komissiya burg'ilash qurilmasini foydalanishga topshirish haqidagi akti yozadi. Unda burg'ilash jihozlarini tayyorgarligini tekshirish natijalari, burg'ilash qurilmasi jamlanmasining to'liqligi, jihozlarning texnik holati, nazorat – o'lchov apparatlari jamlanmasining to'liqligi, kichik mexanizatsiya vositalarining mavjudligi, mehnatni muxofaza qilish bo'yicha avtomatizatsiyani va moslamalarni mavjudligi hamda boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlar o'z ifodasini topadi. Burg'ilash ishlarini olib borish bo'yicha ustada va burg'ilovchilarda quduqni borligi bo'yicha bilimга ega ekanliklari tekshiriladi.

Davlat texnik nazorati vakili burg'ilash qurilmasini ishga tushirishga tayyor ekanligi to'g'risida akti yozadi. Burg'ilash ishlariga va uning ishlab chiqarishiga rahbarlik qilishda maxsus bilimга yoki burg'ilash ishlarini olib borishni mas'ullik huquqi bo'lmagan shaxslarga ruxsat berilmaydi.

Ishga tayyorlangan burg'ilash qurilmasi normativ bo'yicha kurib chiqilgan moslamalar, qurilmalar va asboblار bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Burg'ilashda yong'in uchiruvchi vositalarning ro'yxati bo'yicha mavjudligi va uni yong'in nazorati tashkilotlari bilan kelishilgan bo'lishi kerak. Burg'ilash brigadasi telefon yoki doimiy radio aloqasi bilan ta'minlangan bo'ladi.

Ishlarni bajarish davrida jihozlarni va burg'ilash minorasini texnik holati tekshiriladi. Mexanik va burg'ilash ustasi birgalikda burg'ilash minorasi ikki oyda bir

marta nazoratdan o'tkazadi hamda jurnalda burg'ilash jihozining texnik xolati to'g'risidagi yozuv ruyxatdan o'tkaziladi. Nosoz bo'lgan burg'ilash jihozlaridan foydalanish taqiqlanadi.

Har bir xodim ishga kirishishdan oldin shu joyning holatini, jihozlarini asboblarni va moslamalarini ishga sozligini va tayyorligini hamda texnika xavfsizlik qoidalariga javob berishini tekshiradi. Burg'ilovchi smenani topshirishda jurnalga jihozlarni texnik holati to'g'risida vaxtani jurnalida hamma mavjud bo'lgan jihozlarni, nazorat o'lchov apparaturalarni, asboblarni va ularning ishga yaroqsiz ekanligi to'g'risida yozadi va ular haqidagi ma'lumotlar bilan navbatdagi smenani ogohlantiradi.

Vaxtaning tarkibi to'liq bo'lmaganda tushirish - ko'tarish operatsiyalariga kirishish va o'tkazishni olib borish taqiqlanadi.

Burg'ilash ishlariga maxsus komissiyaning tekshiruvidan, ko'rsatmasidan, ishlab chiqarish o'qishidan, sinovdan o'tmagan va bilimi tekshirilmagan ishchilarga ruxsat berilmaydi. Ko'rsatma vaqtida burg'ilash korxonasining va alohida turdagi ishlarni bajarishga bog'liq bo'lgan texnika xavfsizligi bo'yicha maxsus savollar to'g'risidagi umumiy masalalar tushuntiriladi. Korxonada maxsus yo'ruqnoma jurnali yuritiladi, bu jurnalda xodimlarning bilimlari haqidagi ma'lumotlarni yozib boradi. Ishchilarni ishlarini qabul qilishdagi xavfsizliklar bo'yicha har yili bilimlarni tekshirish ishlari olib boriladi.

Rahbar xodimlarni va muhandis texnik xodimlarni texnika xavfsizligi bo'yicha qoidalarini va yo'riqnomalarni bilishi va namunaviy ko'rsatmalarga ega bo'lishi maxsus komissiya orqali tekshiriladi. Maxsus komissiya BIB boshlig'i yoki bosh muhandis ishtirokida ruxsat berish uchun imtihondan o'tkaziladi.

Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi holatini nazorat qilishga katta etibor beriladi. Burg'ilashda texnika xavfsizligi holatini tekshirish bo'yicha "Jurnal" yuritiladi, unda texnika xavfsizligi bo'yicha topilgan nuqsonlar yoziladi va ularni bartaraf qilishdagi ko'rsatmalar to'ldiriladi. Texnika xavfsizligi holatini nazorat qilishni BIBning o'zi tashkillashtiradi hamda davriy holatda yuqori tashkilotlar ham amalga oshirib turadi. Nazorat qilish vazifasi obektga kelgan har bir BIBning muhandis texnik xodimlari uchun majburiyatlar almashtirilib turiladi. U texnika xavfsizligi holatini tekshirishga va texnika xavfsizligi yo'riqnomasi bo'yicha topilgan kamchiliklarga chora ko'rib bartaraf qilishga majburdir.

Mehnat qonunchiligini va mehnatni muhofaza qilish qoidalarini bajarilishiga rioya qilish vakolati berilgan maxsus davlat texnik nazorat tashkiloti va kasaba uyushmasining texnik inspeksiyasi amalga oshiradi. Kasaba uyushmasining texnik inspeksiyasida texnik inspektor shtati mavjuddir. Texnik inspektor lavozimiga oliy yoki o'rta texnik ma'lumotga ega bo'lgan, shu tarmoqdagi ishlab chiqarishda uch yildan kam bo'lmagan ish stajiga bor mutaxassislar tayinlanadi.

Texnik inspektor doimiy xizmat ko'rsatadigan tashkilotga borib, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish talablarini bajarilishini nazorat qiladi, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi ta'minlanishida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatishga, mehnat sharoitini yaxshilash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishga, baxtsiz hodisalarni va professional kasalliklarni oldini olishga erishadi, bo'yruqnomalarning korxonada tashkillashtirishni tekshiradi va ishni xavfsiz olib borilishi bo'yicha ishchilarni o'rgatadi, muhandis – texnik xodimlarning malakasini

oshirish bo'yicha olib borilgan ishlarni, xodimlarni mehnatni muxofaza qilish qoida va normalarni bilishini, mehnat qonunchiligining holatini va hakerolarni nazorat qilib boradi.

XULOSA.

Tabiiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish va atrof muhitdagi tabiatni muhofaza qilish masalalarining zamonaviy rivojlanish bosqichida insoniyatning oldida turgan eng muhim muammolardandir. Xo‘jalik faoliyatiga ta’sir qiluvchi zararli holatlarni bartaraf qilish va ularning oldini olishning umumiy iste’mol holatlarini o‘rganish muhim vazifalardan biridir. Atrof muhitni muhofazasida va ularni har xil ifloslanishlardan himoya qilishdagi ekologik muammolarni echishda aniq vazifalar burg‘ilash korxonalariga yuklanadi. Burg‘ilash ishlarining ajralib turadigan xususiyati shundaki, ular to‘g‘ridan to‘g‘ri tabiatda ishlab chiqarishni olib borishadilar va o‘lkan maydonlarga tarqaladi, faqatgina quriqlik maydoni egallab olinmasdan botqoqliklar, ko‘llar, dengiz va okean akvatoriyalarni ham egallaydi hamda quduqlarni burg‘ilashda chuchuk va minerallashgan suv uyumlari, har xil tarkibdagi neft va gaz konlari ochiladi.

Burg‘ilash ishlarini nazorat qilish mavjud bo‘lmaganda ekologik iqlimni kuchli buzilishiga olib keladi, mahalliy suv manbalari, oqova quvurlar ta’sirida kimyoviy reagentlar, yoqilg‘i – moylash materiallarining qoldiqlari, yer bag‘ridagi tabiiy flyuid oqimlarining oralig‘idagi izolyasiyalar va yer osti ta’minoti manbaining rejimlari buziladi. Neft va gaz quduqlarining ochiq favvoralari jiddiy ifloslanishlanishlarni keltirib chiqaradi, ba’zi holatlarda atmosferani zaharlanishga olib keladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tkanimizdek, quduqlarni burg‘ilashda katta hajmdagi yuvuvchi suyuqliklardan foydalaniladi, ularning tarkibida katta miqdordagi zararli aralashmalarning (neft va neft mahsulotlari, kimyoviy reagentlar va hk.) konstruksiyasi mavjud bo‘ladi.

Burg‘ilash eritmasining sirkulyasiya tizimi yo‘qotilganda to‘proqqa singib ketadi yoki ochiq suv havzalariga va daryo tarmog‘iga oqib qo‘shiladi. Quduqlarda foydalanib bo‘lingan burg‘ilash eritmaları yer omborlarida, ochiq gruntli joylarda saqlanadi. Kafolat yo‘qki yer omborlarida saqlangan burg‘ilash eritmalarini filtratsiya bo‘lib tuproqqa ketmasligiga, shuning uchun ishlatib bo‘lingan burg‘ilash eritmalarining ustiga grunt to‘kiladi, u uzoq vaqt tuproqni zararlovchi manbaga aylanadi va qishloq xo‘jaligi ishlarini amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi.

Burg‘ilash ishlarida hamma zarar keltiruvchi manbalar qo‘yidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Ishlatish – jihozlarning pollarini, tarnovlarni tozalash, quyqumlarni tashlash, sovutish tizimidan suvlarni oqishi va hakoza.

2. Texnologik – burg‘ilash quvurlari orqali ko‘tarilib oqqan burg‘ilash eritmaları, yuvgandan keyin tashlangan oqova suvlar, burg‘ilashda ishlatib bo‘lingan ortiqcha burg‘ilash eritmalarini paydo bo‘lishi, tushirish – ko‘tarish jarayonlarini amalga oshirishda quduqdan oqib chiqqan eritmalar va xakoza.

3. Tabiiy – burg‘ilash texnik suyuqlarni chiqib ketishi kuchli atmosferadan tushadigan cho‘kmalar orqali yoqilg‘i – moylash materiallarini qo‘shilib ketishi, muzni erishi oqibatida burg‘ilash maydonidan moddalarni olib chiqishi natijasidagi va xakoza.

Tabiatni himoya qilishda qo‘llaniladigan texnologik jarayonlarning majmuasi choralariga ishlash va tadbiiq qilish, ishlab chiqarishdagi qoldiqlarni maksimal kattalikda kamaytirish va ularni zaharsizlantirish, yopiq tizimdagi texnik suvlardan

foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish va tadbiq qilish, tozalash qurilmalari va tizimlarning samaradorligini va ishonchliligini oshirish qoldiqlarni zararli ta'sir qilishga qarshi qo'llanilgan texnologiyalardan samarali foydalanish kabilar kiradi. Burg'ilash tashkilotlarida keyingi yillarda sirkulyasiya tarnovlarini takomillashtirishga va ularning ishonchliligini oshirishga hamda yuvuvchi suyuqliklarni yig'ish, ishlov berish va qoldiqlarni saqlashga katta etibor berishmoqda.

Quduqlarni yuvish sohasida qo'yidagi tadbirlar olib borilmoqda:

- yer omborlaridan foydalanishdan to'liq voz kechish va ularni katta hajmdagi metall rezervlari bilan almashtirish;

- sirkulyasiya tizimida va burg'ilash eritmalarini ko'p o'tkazishda ishonchli yopiq quvurli uzatmalarning takomillashtirilgan konstruksiyalaridan foydalanish;

- burg'ilash eritmalarini quduqdan quduqqa tashishda (birinchi navbatda neft va neft asosli) ko'p martali quduqlarni o'zlashtirish amaliyotining ma'lumotlaridan foydalanish;

- ishlatib bo'lingan burg'ilash eritmalarini qo'shish, ishlov berish va zararsizlantirish va maxsus ajratilgan joyga tashish.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A. "YUksak ma'naviyat-engilmas kuch" Toshkent. Ma'naviyat 2010
2. Karimov I.A. "Ona yurtimiz baxtu-iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir" Toshkent. Ma'naviyat 2015
3. Karimov I.A.
4. Bulatov A.I. i dr. «Texnologiya bureniya neftyanых i gazovых skvajin». M.: Nedra, 2000.
5. Sereda N.G., Solovev E.M. «Burenie neftyanых i gazovых skvajin» M.: Nedra, 1988.
6. Aminov A.M., Lykov E.A. Konspekty leksiy po dissipline texnologiya bureniya neftyanых i gazovых skvajin. Toshkent 1999.
7. Aminov A.M., Nurmatov U.D., «Neft va gaz quduqlarini burg'ilash texnologiyasi» fanidan ma'ruzalar matnlari. Toshkent 1999.
8. Nurmatov U.D., Aminov A.M. «Neft va gaz quduqlarini burg'ilash» fanidan o'quv qo'llanma. Toshkent 2003.
9. Vadetskiy YU.V. «Burenie neftyanых i gazovых skvajin». M.: Nedra, 1985.
10. Mavlyutov M.V. «Texnologiya bureniya glubokых skvajin». M.: Nedra 1982.
11. Aminov A.M., Yodgorov N. Burg'ilash eritmalari. -T.: ToshDTU-1996.
12. Kolomoets A.V. "Preduprezhdenie i likvidatsiya prixvatov v razvedochnom burenii". M.: Nedra 1985.
13. Eliyashevkiy I.V., Storonskiy M.N., Orsulyak YA.M. «Tipovye zadachi i rascheti v burenii». M.: Nedra 1982.
14. «Izuchenie instrumenta dlya likvidatsii avariyy». Metodicheskoe ukazanie k laboratornym rabotam po kursu «Texnologiya bureniya glubokых skvajin». Ufimskiy neftyanoy institut, 1987.
15. Laboratornye raboty po kursu «Texnologiya bureniya glubokых skvajin». Groznenskiy neftyanoy institut im. akademika M.D. Millionshikova. Grozny, 1984.
16. Dudlya N.A. Burovye mashiny i mexanizmy. Donetsk vysshaya shkola, 2001.
17. Ioannesyan K.V. «Sputnik burovika». M.: Nedra 1990.
18. Maslennikov I.K. «Burovoy instrument». M.: Nedra 1989.
19. Danielyan S.G. Burovye mashiny i mexanizmy. M.: Nedra – 1961.
20. Sunnatov Z.U., Mirzaev E.S., Mo'minov T.T. "Neft va gaz quduqlarini burg'ilash" fanidan o'quv qo'llanma. Qarshi 2016.
21. www.ziyonet.uz
22. www.ebook-free.com.ru
23. www.neft i gas.ru
24. www.domisolki.ru
25. www.orion.netlab.cctpu.edu.ru

Mundarija

Kirish	2
I-bob.Burg'ilash minoralari.....	4
1.1. Burg'ilash minoralarining konstruksiyasi va ularning tavsifi.....	4
1.2. Burg'ilash uskunalarining vazifalari va ishlatish sharoitlari.....	5
1.3. Tuzilma-izlov, chuqur qidiruv va ishlatish quduqlarining burg'ilashda qo'llanadigan uskunalar	7
1.4. Burg'ilash uskunalarining ishlash tartibi (rejimi) va ta'sir etuvchi kuchlar	10
1.5. Burg'ilash minoralarining konstruksiyasi	11
1.6. Burg'ilash minoralari uchun kattaliklarni tanlash va ularning texnik tavsifi.....	13
1.7.Burg'ilash tizmalarini tushiradigan va ko'taradigan burg'ilash minoralari va qurilmalari.....	14
1.8. Burg'ilash chig'irig'i	21
1.9. Burg'ilash minoralarining asosi, ularning tuzilishi haqida umumiy ma'lumot	22
1.10. Suv ustida neft va gaz quduqlarini burg'ilash.....	25
1.11. Suv ustida burg'ilash uchun muqim poydevorlar.....	26
1.12. Suzuvchi burg'ilash qurilmalari.....	26
1.13. Dengiz quduqlarini tuzilishi va quduq usti jihozlari.....	27
1.14. Burg'ilash minoralarining hisobi.....	28
 II bob. Tal tizimi va ularning asosiy elementlari hisobi.....	31
2.1. Tal tizimining vazifalari tavsifi va uskunalarining tarkibi.....	31
2.2. Tal tizimining texnikaviy tavsifi.....	31
2.3. Tal po'latli arqon(kanat)lar.....	32
2.4. Tal bloki.....	33
2.5. Burg'ilash ilgaklari	33
2.6. Tal arqonida bo'ladigan kuchlanishlarni aniqlash.	34
2.7. Vertlyuglarni vazifalari, tavsifnomasi va konstruksiyasi.....	37

2.8. Vertlyuglarni qo'llash.....	38
2.9. Tal tizimlari.....	39
2.10. Burg'ilash quvurlarining tal tizimiga ta'siri.....	42
2.11. Yengil qotishmali burg'ilash quvurlari.....	44
2.12. Obsadka va kolonkaviy quvurlar.....	47
2.13. Tal tizimi va sim arqon(kanat)ni hisoblash.....	51
III bob. Hayot faoliyati xavfsizligi.....	54
3.1. Burg'ilash brigadasining vazifalari.....	54
3.2. Burg'ilashni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish vositalari.....	57
3.3. Burg'ilash ishlarini bajarishda sanoat xavfsizligi.....	58
Xulosa	63
Adabiyotlar ro'yxati	65
Ilovalar	66